

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

**“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**“MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH
MARKAZLARIDA SPORT SOG‘LOMLASHTIRISH
FAOLIYATI” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

*Mazkur bitiruv malakaviy ishi
kafedaraning dastlabki himoyasidan o‘tdi
“___” _____ 20__ yil dagi
____ sonli yig‘ilish Bayonnomasi
«___» _____ 2016 yil himoyaga tavsiya
etilgan*

KAFEDRA MUDIRI:

Shodiyev X.X _____

BAJARDI: 5151700- “Madaniyat va
san’at muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi

Jalilov Abror Qaytarovich

ILMIY RAHBAR:

Katta o‘qituvchi ***B. Yuldoshev***

Toshkent – 2016

MUNDARIJA

Kirish _____ 3-bet

1. BOB. RESPUBLIKAMIZDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Barkamol shaxsni tarbiyalashda jismoniy tarbiy va sport
tadbirlarining o‘rni _____ 9-bet.

1.2. Madaniyat va aholini dam olish markazlarida sport to‘garaklarini
rivojlantirish orqali yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish
masalalari. _____ 31-bet

2. BOB. MADANIY TADBIRLAR VA SPORT TO‘GARAKLARI MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZINING QISMI SIFATIDA

2.1. Madaniy tadbirlarda sportning milliy xalq o‘yinlaridan
foydalanish _____ 47-bet

2.2. Xalqimizning milliy o‘yinlari jismoniy va sport vositalaridan biridir _58-bet

Xulosa _____ 68-bet

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati _____ 69-bet

Ilovalar _____ 72-bet

KIRISH

"Ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiyligni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqbol mafkurasining bosh maqsadidir".

I.A. Karimov.

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov tomonidan respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommaviylashuvini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o'yinlarini qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida qabul qilgan farmon va qarorlari bugungi kunda milliy sport o'yinlarini keng ommalashtirish ishida dasturilamal vazifasini bajarmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining "Barkamol avlod orzusi" "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori " nomli asarlarida "Kuch - bilim va tafakkurda" degan g'oyalarini ilgari surib, yoshlarni shunday bo'lishga undaganliklari bejiz emas. Chunki bugungi yoshlar ertangi yurt egalaridir. Shuningdek, yurtboshimiz komil inson deganda, biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xalq atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushinamiz, diydilar¹.

Hukumatimizning jismoniy tarbiya va sportga oid qator hujjatlarida xalqimiz milliy qadriyati bo'lmish milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligi yosh avlodda milliy an'analarimiz, jumladan, milliy sport o'yinlariga nisbatan qiziqish, faol ijobiy munosabat, jismoniy faoliyatga nisbatan motivatsiyani shakllantirishga sharoit yaratadi.

¹ I.A.Karimov. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori ". "Manaviyat".

Bugungi kunga kelib Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan respublikamizda “Madaniyat va aholi dam olish markazlari”ning tashkil etish ishini yanada rivojlantirish dasturlari ishlab chiqildi va ushbu dasturda eng asosiy har bir madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining asosini ko‘plab sport to‘garakalari tashkil etilishi yoshlarimiz uchun katta ahamiyatga egadir.

Ayniqsa, mahallalarda milliy sport o‘yinlari bilan shug‘ullanish faoliyatini jadal olib kirish - kun tartibidagi muhim masalaga aylanmoqda.

Allomalarimizdan Mashhur tabib Ibn Sino inson organizmini sog‘lomlashtirish va kasallikni davolash nuqtai nazaridan qarab, xalq o‘yinlaridan biri bo‘lgan badantariyani besh asosiy qismga ajratadi.

Ular: a) tez harakatlar;

b) nozik va yengil harakatlar;

v) kuchliroq harakatlar;

g) o‘rta kuchli harakatlar va;

d) gavda uchun maxsus harakatlardir.

Ushbu klassifikatsiya bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo‘lib, yoshlar faoliyatida muntazam joriy etish zarurati mavjud. Mamlakatimiz sportchilarining jahon kortlari, ringlari va stadionlarida qo‘lga kiritgan va kiritayotgan yutuqlari tobora yuksalib borayotganligi yoshlarda milliy sport o‘yinlariga nisbatan qiziqishni tarbiyalashda muhim omil bo‘lmoqda.

Bu esa ularda milliy sport o‘yinlariga nisbatan ijobiy munosabatlar shakllanib borayotganligidan dalolatdir.

Yuqorida ta’kidlanganlarning barchasi tanlangan mavzuning dolzarbligini, uning jiddiy talablar bilan uyg‘un kelishini alohida qayd etish joiz.

Mamlakatimiz prezidenti muxtaram I.Karimovning 2004 - yil 27-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi”ni tashkil etish to‘g‘risidagi farmoniga muvofiq, madaniyat va sport tadbirlarini tashkil etishni keng ko‘lamda amalga oshirish ishlarini yanada jadallashtirishga imkoniyat yaratildi. Madaniyat va sportni rivojlantirish muammolarini kompleks tarzda hal etish, jismonan sog‘lom, ma’naviy jihatdan boy va barkamol shaxslarni

tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, sog'lom turmush tarzi va sportga muhabbat tuyg'usini singdirish, aholining madaniy va estetik talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, shuningdek madaniyat va sport sohasini boshqarishni takomillashtirish, bu sohada davlat siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish darajasini ko'tarish maqsadida bir qator vazifalarni belgilab qo'yilgandi.

Bizga ma'lumki inson shaxsi va uning harakteri, shu bilan birga qiziqish va qobiliyatlari yoshlikning ilk yillaridanoq shakllanib boradi. Yoshlarning kelajagidan umidvor bo'lgan jamiyat bu jarayonga faol aralashishi va inson shaxsini kamolga yetkazish borasidagi vazifalarga ijodiy nuqtai nazardan yondashishi kerak bo'ladi. Agar lozim bo'lganda, maktabgacha yoshdagi guruhlaridagi bolalarning aqliy imkoniyatlari ularning ta'lim-tarbiyasiga, intellektual salohiyat darajasiga hamda shaxslararo munosabatlariga, bola harakterining shakllanishiga, shuningdek guruhdagi ruhiy muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan kelib chiqadiki, barkamol shaxsni rivojlantirishda sport tadbirlarining roli hamda madaniyat muassasalari va ijtimoiy muhit va moslashuv omillarining ta'sirini o'rganish dolzarb muammolardan biridir. Yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi tanlangan mavzuning dolzarbligini, uning jiddiy talablar bilan uyg'un kelishini alohida qayd etish joiz.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Sport va jismoniy tarbiya sohasida ilmiy-tabiiy asosi (mededsena, fiziologiya, gigiyena, bioximiya...)dan tarkib topadi. Yevropa olimlari va mutaxassislarining ta'limotlari, shuningdek jismoniy harakat ko'nikmalarini shakllantirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri qurish qonuniyatlarini tushunish imkonini beradigan oliy nerv faoliyati haqidagi zamonaviy tadqiqotlar muhim xisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga oid qator hujjatlarida xalqimiz milliy qadriyati bo'lmish milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligi yosh avlodda milliy an'analarimiz, jumladan, milliy sport o'yinlariga nisbatan qiziqish, faol ijobiy

munosabat, jismoniy faoliyatga nisbatan motivatsiyani shakllantirishga sharoit yaratish

Tadqiqotning vazifasi:

- Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga oid manbalarni to'plash va ularni o'rganish:

- Jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishida uchrayotgan muammolarni hal qilishni aniqlash:

- Mamlakatimizda barkamol shaxsni shakllantirishda jismoniy tarbiyaning o'rni va rolini aniqlashtirish;

- Madaniyat muassasalari faoliyati jarayonida sport to'garaklarining turlari, shakllarini izchil shakllantirilishiga ilmiy hamda amaliy yordam berish:

Tadqiqotning obyekti - Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqni o'rganishda yurtimizda mavjud madaniy-ma'rifiy muassasalari va sport obo'ktlari foliyati qo'l keldi.

Tadqiqotning predmeti - Ma'naviy barkamol inson tarbiyasida sport va jismoniy tarbiya shakllari va turlari orqali sport va madaniyatning rivojlanish bosqichlari ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ushbu jarayonning mazmuni, shakli, vosita va metodlari o'rganib chiqildi va qadriyatlarga yondashuv ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, shu asosda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo'yicha monitoring olib borish. Mazkur masala yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish va samaradorlik darajasini belgilash.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan Davlat dasturlari, "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining QARORI (31 oktabr 2002 yil),

“Bolalar va o‘smirlar sport maktablarini kadrlar bilan ta‘minlashni yaxshilash to‘g‘risida” O‘zR XTVning BUYRUG‘I (13 may 2005 yil),

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risida NIZOM (6 iyul 2005 yil), O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi Homiylik kengashining Tarkibi (Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31 oktabrdagi 374-sonli qaroriga 2-ilova),

2007 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi byudjetini va bolalar sport obyektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI (26 dekabr 2006 yil) kabi rasmiy meyoriy hujjatlari:

“Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” risolasida ko‘tarilgan muammolar va ularning yechimlari haqidagi qarashlarni shakllantirishning an‘anaviy va zamonaviy metodlariga yaxlit yondashuv, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, falsafiy manbalar.

Tadqiqot metodlari:

A) Mavzuga doir bo‘lgan meyoriy hujjatlar, nizomlar, ko‘rsatmalar, ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy, jismoniy tarbiya va sportga oid pedagogik va psixologik adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish;

B) Mavzu yuzasidagi qiyosiy-pedagogik tahlil;

V) Mavzu yuzasidan ma‘lum bir aholi o‘rtasida suhbat, anketa, o‘tkazish usullari.

D) Zaruriy xujjat va ko‘rsatmalarni o‘rganish;

G) Mavzu yuzasidan kerakli hujjatlar orqali monitoring olib borish.

Malakaviy bitiruv ishining nazariy ahamiyati. Respublikamizda madaniyat va aholi dam olish markazlarining ishlarini tashkil qilish borasida ishlab chiqilgan dasturlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident Islom Karimov jismoniy tarbiya va sportga oid farmonlari, nutqlari, kitoblari, madaniyat muassasalari ishlarini olib borish masalasiga oid bo‘lgan hujjatlar tadqiqotning nazariy asosi va dasturiy amali hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan Respublika oliy ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayonida mafkuraviy tarbiya samaradorligini oshirishda, ma'naviy –ma'rifiy, tarbiyaviy hamda sport va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali talabalar ongiga singdirishning yangi texnologiyalarini joriy qilishda, Madaniy ma'rifiy tadbirlarda milliy sport o'yinlari bilan bir qatorda xordiqiy tadbirlarning, turli shakl va turlari orqali sport o'yinlarini tashkil etish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil etishda madaniyat va aholi dam olish markazlarining sport to'garaklari va seksiyalari orqali xizmat doirasini kengaytirish va rivojlantirish vazifa qilib olinishida katta ahamiyatga egaligi.

Bundan tashqari o'quv yurtlarida “Jismoniy tarbiya va sport”, “Milliy sport xalq o'yinlari”, “Anana va marosimlar”, “Sog'lom turmush tarzi” kurslarini o'qitishda, jismoniy tarbiya va sport to'garaklari studiyalar, Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'qituvchi va murabbiylarining malakasini oshirish orqali mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning shakli hamda vosita va metodlari bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining strukturaviy tuzilishi

Kirish, ikki bob, to'rt bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

1. BOB. RESPUBLIKAMIZDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Barkamol shaxsni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining o‘rni.

O‘zbekiston siyosiy mustaqillikka erishishi bilan xalqimiz hayotida yangi davr boshlandi. Boshqa sohalarda bo‘lgani singari «Jismoniy tarbiya va sport» faoliyatida ham katta o‘zgarishlar yuz berayapti. Jismoniy tarbiya va sport faoliyati 1992 yildan keyin amalda yangidan barpo etildi.

Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan qayta ko‘rishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, ya’ni shaxsning har tomonlama rivojlanishi va faravonligi hisoblanadi. Shunday ekan, kelajagimizning egalari bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, jismonan sog‘lom va ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Shubxasiz, yangi jamiyatni qo‘rish, eng avvalo yoshlarga, ularning ma’naviy dunyosi, kasbiy mahorati va yaxshi jismoniy holatiga bog‘lik bo‘ladi. Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan meyoriy xujjatlar – «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunlar, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «O‘zbekistonda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida»gi farmoni, shuningdek bu hujjatlarni amalga oshirishda mavjud ta’lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o‘zgartirish, zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoiy tajribalarga, ta’lim jarayonini hamma bosqichlarida uzluksiz ta’lim tizimini ta’lim muassasalarining hamma shakl va turlarida ilg‘or metodik ta’limlarga tayangan xolda amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommaviylashuvini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o‘yinlarini qayta tiklash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo‘yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida hukumatimiz, xususan mamlakatimiz

Prezidentning qabul qilgan farmon va qarorlari milliy sport o'yinlarini keng ommalashtirish ishida muhim omil bo'lmoqda.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Farzandlarimizga nafaqat ishonch bildirish, balki ularga o'zini amalda namoyon etishi uchun maydonni kengaytirish kerak"² degan da'vati yana bir karra o'z hayotiy isbotini topayotgani quvonarlidir.

Bugungi kunda sport butun dunyoda har qaysi millat, har qaysi xalqni jahonga tanitishning, uning o'z salohiyatini namoyon etishi, g'urur va iftixorini yuksaltirishning eng samarali va ta'sirchan vositasiga aylangan. Yurtimizda bolalar sportini rivojlantirishga O'zbekiston sportining kelajagini ta'minlash, uning xalqaro maydondagi obro' va e'tiborini yuksaltirishning bosh omili sifatida qaralayotgani bejiz emas.

Shu nuqtai nazardan davlatimiz rahbarining har qaysi viloyat yoki tuman rahbari, har qaysi yetakchi va mutasaddi shaxs bolalar sportini rivojlantirish masalasiga g'oyat jiddiy e'tibor qaratishi zarur, qayerda, qaysi sohada bo'lmasin — bu ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohasi bo'ladimi, agarkı yilt etgan iste'dod paydo bo'lsa, bunday bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali ularni avvalo Vatanimiz, xalqimiz qo'llab-quvvatlayotganini jamoatchiligimizga, yoshlarimizga yetkazishimiz, anglatishimiz kerak, degan gaplari alohida ahamiyatga egadir.

Bolalar, yoshlarni sportga jalb etish, ular orasida sportni ommalashtirish, o'g'il-qizlarimizni jismoniy chiniqishga o'rgatish muayyan tashkilotlarning vazifasi, deb yuradiganlar ham yo'q emas. Aslida sport bilan shug'ullanaman, degan bolaga har birimiz qo'limizdan kelgan yordamni ko'rsatsak, uning qobiliyati yuzaga chiqishiga ko'mak bersak, bola o'z maqsadi yo'lida astoydil intiladi, tinimsiz

² I.A.Karimov. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". "Manaviyat".

harakat qiladi, ezgu niyatga erishish asnosida unda mustahkam iroda shakllanadi. Bu bilan xalqimizning buyuk maqsadi bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

O‘zbekistonda sportga bolalik davridan mehr qo‘ygan ruhi tetik, iligi to‘q, bilagi baquvvat, har tomonlama barkamol avlod voyaga yetmoqda. Bu sog‘lom avlod timsolida kelajagimizni, mamlakatimizni isloh etish va yangilash bo‘yicha belgilab olgan yuksak maqsadlarimizga erishish yo‘lida tom ma’noda hal qiluvchi kuch, tayanch va suyanch bo‘lishga qodir yoshlarimizni ko‘rib turibmiz. Xalqimizning ulug‘ orzusi — barkamol avlod orzusi ro‘yobga chiqmoqda...

Ayniqsa, qizlarimiz o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada keng ommalashtirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Bunda, shubhasiz, Prezidentimizning «Qishloq joylardagi bolalar sporti obyektlarida band bo‘lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi hamda «Badiiy gimnastika bo‘yicha bolalar-o‘smirlar ixtisoslashtirilgan respublika olimpiya zaxirasi sport maktabini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorlari muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qizlarimizning sog‘lom, oqila va nafosat sohibalari bo‘lib kamol topishlarida alohida o‘rin tutmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mazkur ezgu say-harakatlar biz yoshlarning barkamol avlod sifatida voyaga yetib, O‘zbekistonimizning buyuk kelajagini barpo qilishimiz, uning dunyoning eng rivojlangan demokratik davlatlari qatoridan munosib o‘rin egallashi yo‘lida o‘z kuch-g‘ayratimiz, bilim va iqtidorimiz, intellektual salohiyatimizni safarbar etishimizda tamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada davlatimizning qator qarorlari, ko‘rsatmalarida

Jumladan,

1. “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining QARORI (31 oktabr 2002 yil),

2. “Bolalar va o‘smirlar sport maktablarini kadrlar bilan ta’minlashni yaxshilash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi XTVning BUYRUG‘I (13 may 2005 yil),
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risida NIZOM (6 iyul 2005 yil), O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi Homiylik kengashining Tarkibi (Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31 oktabrdagi 374-sonli qaroriga 2-ilova),
4. 2007 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi byudjetini va bolalar sport obyektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI (26 dekabr 2006 yil) kabi rasmiy meyoriy hujjatlar mahallalarda yoshlarni milliy sport o‘yinlari orqali tarbiyalashning huquqiy asoslarini yaratib berdi.

Ma’naviy yuksalish jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligi bugungi kunda hammaga ayon. Chunki, mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi, bugungi yosh avlodning farovon hayoti, chuqur tafakkurga ega bo‘lgan, fikri teran va zehni baland bo‘lishini shakllantirish madaniyat xodimlaridan katta mehnat va mas’uliyatni talab etadi.

Ommaning madaniy-ma’rifiy hamda sport soxalardagi ishtiroki va tashabbusi hozirgi kunda tobora keng va turlicha shakllarda o‘z ifodasini topmoqda.

Jamiyatning madaniy hayotini o‘stirish, insonlarning bilim darajasini yuksak rivojlangan, sog‘lom kishilar qilib tarbiyalash, madaniy-ma’rifiy muassasalar oldida turgan ulug‘ maqsadlardan biri ekanligi hozirgi vaqtda kunday ravshan.

Jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o‘zgarishini talab qiladi, madaniyating yangilanishi esa, o‘z navbatida jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo‘ladi. Boshqacha aytganda moddiy va ma’naviy madaniyat inson aql idroki, iste’dodi va mehnati mahsulidan iboratdir. Xalq ommasi madaniyat ijodkorigina emas, balki uni to‘xtovsiz ravishda boyituvchi, rivojlantiruvchi va avloddan avlodga yetkazib turishni ta’minlovchi hamdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda o'tkaziladigan sport tadbirlar kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni Vatanga, milliy qadriyatlarga va el yurtga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Butun dunyoda sport, asosan ikki yo'nalish bo'yicha rivojlanadi:

1. Hammabop (ommaviy) sport;

2. Yuqori natijalar sporti.

"Sport" tushunchasi bilan birga ko'pincha "jismoniy tarbiya" yoki ularning uyg'unlashgan holdagi "jismoniy tarbiya va sport" degan tushunchadan ham foydalaniladi. Sport jismoniy tarbiyaning yirik tarkibiy hamda ajralmas qismidir. Jismoniy tarbiyaning bir qator ijtimoiy funksiyalari sportga ham taalluqlidir. Biroq sportning hamma turlarini ham jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismiga kiritib bo'lmaydi. Bu "jismoniy tarbiya" atamasi ostida jamiyat va shaxs madaniyatining jonli qismi tushunilishi bilan bog'liq, odamning o'z holati va rivojlanishining eng qulay omili sifatida harakatli faollikdan oqilona foydalanishi va hayotiy amaliyotga jismoniy tayyorgarligini rivojlantirib borishi anglashiladi.

His-hayajonli, tomoshabop funksiyalar – sport o'zida estetik xususiyatlarini namoyon qilishi orqali ochiladi, ular insonning jismoniy va ma'naviy sifatlarining uyg'unlashuvi orqali ko'zga tashlanadi, shuningdek u sport bilan ham chegaralashadi. Bu o'rinda, ayniqsa sportning muvofiqlashtirilgan murakkab turlari ancha jozibali ko'rinadi, badiiy va sport gimastikasi, figurali uchish, suvga sakrash va boshqalar shular jumlasidandir.

Inson tanasining go'zalligi, texnik tomondan murakkab va sayqallangan harakatlar, bayramona kayfiyat – bularning bari chinakam sport muxlislarini o'ziga rom etadi. Sportning tomosha sifatidagi ommaviyligi ko'plab odamlarning shaxsiy va jamoaviy manfaatlariga daxl qiladigan, his-hayajonliligi, idrok qilishning o'tkirliligi, shuningdek amalda hammaga tushunarli bo'lgan "sport tilining" universalligi bilan tavsiflanadi.

Sport odamlarni jamoat hayotiga jalb qiladigan eng qudratli omillardan biri sanaladi, shu orqali ijtimoiy munosabatlar tajribasi bilan shugʻullanishning shakllanishiga ham erishasiz. Uning shaxs ijtimoiylashuvi jarayonidagi muhim roli ham shunga asoslangan.

Sportni rivojlantirishga ajratilayotgan mablagʻlar 3 karra boʻlib oʻzini oqlamoqda. Bu eng avvalo, aholi salomatlik darajasini oshirish, umumiy ishchanlik qobiliyatini yaxshilash, inson umrini uzaytirish kabi ijtimoiy sohalarda yaqqol namoyon boʻlmoqda. Sport haqidagi fan, uning moddiy-texnik bazasi rivojlanishi, kadrlarni tayyorlash bularning bari bolalar va oʻsmirlar sporti, ommaviy va yuqori natijalar sportining rivoj topishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Ijtimoiy ahamiyatlar ham, shuningdek moliyaviy mablagʻlarga ega - bu sport tomoshalari, sport inshootlaridan foydalanish orqali olinadigan daromadlardir. Biroq bular sportni rivojlantirish yoʻlida davlat va jamoat tashkilotlari qilayotgan say-harakatlar oldida aytarli hech narsa emas. Jamiyatimizning asosiy qadriyati -- bu salomatlikdir. Va mana shu nuqtai nazardan olganda – sport bebahodir.

Biron bir manman degan rivojlangan xorijiy davlatlarda qoʻllanilmagan yillarning oʻziga xos nomlanishini faqat rivojlanayotgan oʻzining istiqbolli yoʻlini aniq belgilab olgan bizning mamlakatda yurilishiga koʻplab davlatlar orzu bilan qarashadi.

Joriy 2016 yilni Prezidentimiz “Sogʻlom ona va bola yili” deb nomladi va Davlat dasturi ishlab chiqildi, ana shu davlat dasturining ijrosini taʼminlash borasida mamlakatimizda katta koʻlamni ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat dasturining yoʻnalishlar soni 11 ta bandlar soni 88 tani tashkil etadi.

Aynana shu Dasturning 5-yoʻnalishi borasida gapiradigan boʻlsak Yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni ayniqsa, qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shugʻullanishga jalb etish, yangi

sport obyektlarini qo‘rish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash. Yuqori malakali trener-kadrlar va murabbiylar bilan mustahkamlash.

Jumladan:

1	Umumta’lim maktablarida qo‘shimcha 1 ming 706 ta sport zali qurish	Joriy yilda 217 ta
2	Har bir tumanda kamida 1 tadan zamonaviy bolalar va o‘smirlar sport maktablarini tashkil etish	Joriy yilda 15 ta
3	56 ta ixtisoslashgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari faoliyatini tashkil etish	Joriy yilda 5 ta
4	Mavjud suzish havzalarini sonini 290 taga yetkazish	Joriy yilda 11 ta
5	14 ta yangi ixtisoslashgan sport maktablariini tashkil etish	Joriy yilda 3 ta
6	Barcha mikrorayonlarda sport zonalarini o‘z ichiga olgan bolalar maydonchalarini qurish dasturini davom ettirish	
7	156 ming nafar sport bilan doimiy shug‘ullanuvchi qizlarni “Prezident sovg‘asi”, ya’ni sport kiyimlari bilan ta’minlash, “Quvnoq startlar”, “Universiada-2016”, “Yosh chegarachi” kabi sport musobaqalarini tashkil etish	

Mahalliy hokimliklarning ushbu yo‘nalishdagi vazifalari.

Birinchi.	Yangi qurilgan sport inshootlarini zamonaviy loyihalar asosida sifatli barpo etish, ularning talab darajasida ji hoslanishi:
Ikkinchi.	Tashkil etilayotgan sport musobaqalarining quyi bug‘inlarda ham saviyada o‘tkazilishini, ommaviyligini hamda musobaqa ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlash:

Uchunchi.	“Prezident sovg‘asi” sifatida beriladigan sport kiyimlarining har biri sportchi-qizga manzilli yetib borishi va tadbirlar tantanaliravishda topshirilishini tashkil etish.
-----------	--

Ko‘rinib turibdiki Davlatimiz rahbari har bir qaror, ko‘rsatmalar, qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini ayniqsa sportga bo‘lgan ijro intizomiga hamma birdek ma’sul va amal qilishga barchani safarbar etilishini va buning bajarilish nazoratini o‘z zimmasida ekanligini ko‘ramiz.

Muhtaram Prezidentimiz “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida ta’kidlaganidek, “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarmizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir”.³ Bugungi kunda yoshlarimiz turli xil sport to‘garakalarida darsdan bo‘sh vaqtlarida astoydil shug‘ullanmoqda, buning uchun yoshlarimiz mamlakatimizda barcha shart sharoitlar yaratilgan.

Sportning turlari haqida quyidagilarni misol qilish mumkin:



Badiiy gimnastika – ayollar sporti hisoblanib, sportning yosh turlaridan biridir. U 1947 yillarda rasmiy tan olingan. Sportning ushbu turi uncha katta bo‘lmagan muddat ichida olamshumul shuhrat qozondi va yer kurrasining barcha burchaklarida o‘zining ko‘p sonli muxlislariga ega. Badiiy gimnastika O‘zbekistonda ham keng ommalashgan. Bizning sportchi qizlarimizning badiiy gimnastika bo‘yicha 2011 yilning fevral oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Osiyo

³ Каримов И.А.Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т.:“Маънавият”,2008.й.

championatida erishgan yutuqlari tahsinga sazovar bo'lib, ushbu sport turiga bo'lgan qiziqish doimiy ravishda o'sib borayotganidan dalolat bermoqda. Bugungi kunda badiiy gimnastika bilan O'zbekistonda 31320 nafar qizlar shug'ullanishmoqda.



Suzish markaziy asab tizimi faoliyatini yaxshilaydi, kuchlilik va chidamlilikni shakllantiradi, tayanch-harakat apparatiga to'g'rilovchi ta'sir qiladi, suyak-mushak tizimining o'sishiga imkon beradi, termoregulyatsion refleksi yaxshilaydi, organizmni chiniqtirishga va bronx o'pka kasalliklarini profilaktika qilishga imkon beradi. Energiya qudrati tejalib sarflanganda o'pkaning hayotiy sig'imi, maksimal o'pka ventilyatsiyasi, kisloroddan foydalanish koeffitsiyenti oshadi. **Yengil atletika mashg'ulotlari** (sprint, sakrash, yadro otish) organizmning funksional imkoniyatlarini, uning ishchanligini oshiradi, bo'g'imlarning harakatchan sig'imini yaxshilaydi, kuch, tezlik, chidamlilik, sakrash qobiliyatini tarbiyalaydi, bular yuqori ta'sirning sog'lomlashtiruvchi omili bo'ladi, chunki mashg'ulotlar ochiq havoda o'tib, o'ziga xos qarshilikni

oshiradi.



Stol tennisi va katta tennis – reaksiya va fikrlash tezligi, harakatchanlik, chaqqonlik, maqsadga intiluvchanlik, chidamlilikni shakllantiradi.



Kurashning hamma turlari mushaklarning uyg'un rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatib, reaksiya tezligini, egiluvchanligini, g'alabaga ishonch kuchini, chidamliligini, mushak tizimi faoliyatini oshirib, atletik gavda tuzilishini shakllantiradi.



Velosport – oyoq-qo'llar hamda orqa mushaklarini rivojlantiradi va mustahkamlaydi, organizm faoliyatini takomiliga yetkazish uchun ichki zaxiralarni safarbar qiladi.

Turizm maktab o'quvchilarini jismoniy tarbiyalashning va tabiat qo'ynida faol dam olishning g'oyat qimmatli vositasi hisoblanib, chiniqtirishga xizmat qilib, sog'likni mustahkamlaydi, chidamlilikni oshiradi, do'stona munosabatni rivojlantiradi.

Bolalar hayot uchun muhim amaliy ko'nikmalarni egallashadi, joyida mo'ljal olishni, tabiiy to'siqlarni yengib o'tishni o'rganishadi, turizm kardiorespirator tizimiga, markaziy asab tizimi va mushaklar tizimiga katta ta'sir ko'rsatadi,

ularning funk-sional holatini oshirib, bolalarni nostandart sharoitlarga moslashtiradi.



Sportning texnik turlari bo'yicha mashg'ulotlar (motosport, karting). Maktab o'quvchilarida bilimga chanqoqlik, texnikaga qiziqish va uni sevishni shakllantiradi, nostandart sharoitlarga reaksiyani tarbiyalaydi, ekstremal sharoitlarda hamjihatlik hamda intizomlilikka chorlaydi, katta harbiy-amaliy ahamiyatga ega.

Faqat bizning mustaqil mamlakatimizda sportga e'tibor kuchli siyosat darajasiga ko'tarildi va bunga misol - Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan va yoshlarimizning sevimli sport anjumaniga aylangan uch bosqichli sport musobaqalari 2000 yili Universiada bilan Namanganda boshlangan edi. Mana shu stadionda bo'lib o'tgan o'sha tantanali marosimlar shukuhini namanganliklar hamon iliq taassurotlar bilan eslaydi.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya olishi, salomatligini mustahkamlashi, kasb-hunar egallashi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratishga izchil e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bunday ezgu ishlar farzandlarimizning sportga qiziqishini yanada oshirish, ularning sog'lom, kuchli, mard va qat'iyatli bo'lib kamolga yetishiga xizmat qilmoqda.

Bugun katta hayotga dadil kirib kelayotgan yoshlar – xalqimiz orzu qilgan barkamol avlod vakillaridir. Ular o‘z sohalari bo‘yicha puxta bilim olgan, zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirgan, xorijiy tillarni yaxshi biladigan, bilimli, yuksak ma’naviyatli va jismonan sog‘lom yoshlardir.

Mamlakatimizdagi bir yarim mingdan ziyod bolalar sporti inshootlarida tashkil etilgan 65 mingdan ortiq sport seksiyalarida ikki millionga yaqin bola sportning o‘ttizdan ziyod turi bilan muntazam shug‘ullanmoqda. Ularning 840 mingdan ortig‘i qizlardir. Qishloqlarda yaratilgan sharoit tufayli sport bilan shug‘ullanayotgan qishloq bolalarining soni 2003 yildagi 14,7 foizdan 2015 yilda 43 foizga, jumladan, qiz bolalar ulushi 17,8 foizdan 37,9 foizga o‘sdi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanayotgan o‘g‘il-qizlar safi kengaygani sari, tabiiyki, sport inventarlariga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Bolalar sporti inshootlari uchun zarur bo‘ladigan 120 turdagi uskuna va anjomlarning 116 turi mamlakatimizda ishlab chiqarilmoqda.

O‘zbekiston ommaviy sportni rivojlantirish orqali katta sportda ham ulkan yutuqlarga erishayotir. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e’tiborning amaldagi samaralari – yoshlarimizning jahon va qit’a miqyosidagi nufuzli musobaqalarda qo‘lga kiritayotgan yutuqlaridan haqli ravishda faxrlanamiz.

Mamlakatimiz sharafini xalqaro maydonlarda munosib himoya qilayotgan sportchilar orasida uch bosqichli sport tizimidan yetishib chiqqan yoshlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bugun ushbu mohir sportchilarimiz ulg‘ayib kelayotgan o‘g‘il-qizlar uchun haqiqiy o‘rnak va namuna timsoliga aylangan.

Bu borada aynan “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada musobaqalaridan iborat uzluksiz sport tizimining ahamiyati beqiyos. Mazkur uch bosqichli noyob sport tizimi mutaxassislar tomonidan yangi pedagogik

texnologiya sifatida e'tirof etilib, bugun ko'plab davlatlar katta qiziqish bilan o'rganayotir.

Mazkur tizimning o'rta bo'g'ini – “Barkamol avlod” sport musobaqalariga e'tibor qaratsak mazkur musobaqaga ilk marotaba 2001 yilda Jizzaxda start berilgan edi. Musobaqaning mamlakat bosqichida tuman, shahar, viloyat miqyosidagi bellashuvlarda o'z iqtidori va qobiliyatini namoyon etgan eng sara sportchilar qatnashadi. “Barkamol avlod” bellashuvlarida qayd etilayotgan natijalar, ko'rsatkichlar, rekordlar yildan-yilga o'sib borayotgani yoshlarimizning sportdagi salohiyati yuksalayotganidan dalolatdir.



Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «sport har qaysi millat, har qaysi xalqni dunyoga tanitishning, uning salohiyatini namoyon etish, g'urur va iftixorini yuksaltirishning eng samarali va ta'sirchan vositasidir. Insonning shaxs sifatida kamol topishida, unda kuchli iroda, g'alabaga intilish, qiyinchiliklarni yengish ruhini tarbiyalashda, qalbi va ongiga vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, iftixor tuyg'ularini singdirishda sportning ahamiyati beqiyos».⁴

Davlatimiz rahbarining bolalar sporti – o'zbek sportining kelajagi, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirishning mustahkam poydevoridir, degan fikri amalda o'z isbotini topmoqda.

Mutaxassislar va keng jamoatchilik tomonidan “Kichik Olimpiada”, deb ta'riflangan uch bosqichli uzluksiz sport tizimi musobaqalari Olimpiya o'yinlari

⁴ I.A.Karimov. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori ". “Manaviyat”.

qoida va talablari asosida o'tkaziladi. e'tiborlisi, bu yilgi musobaqalar avvalgisidan to'rtta ko'p, ya'ni sportning o'n olti turi – basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, og'ir atletika, dzyudo, yunon-rum kurashi, erkin kurash, boks, taekvondo, yengil atletika, badiiy gimnastika, tennis, stol tennisi, suzish va shaxmat bo'yicha o'tkazilmoqda.

Musobaqalarda ishtirok etadigan yoshlarning aksariyatini sport bilan muntazam shug'ullanib, yuksak marralar sari intilayotgan, bolalar va o'smirlar o'rtasidagi bellashuvlarda tajriba va mahoratini oshirib, katta sportdagi muvaffaqiyatli odimlarini boshlash arafasida turgan iqtidorli o'g'il-qizlar tashkil etadi.

Bu borada biz mamlakatimizda o'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz respublika sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 27-son, 315-modda; 2014 y., 19-son, 215-modda)⁵ qarorini ko'rsatishimiz mumkin.

Ushbu qarorda: Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib joriy etilgan uch bosqichli yagona sport o'yinlari tizimi — «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» musobaqalari yosh avlodni sog'lom turmush tarzi tamoyillari asosida tarbiyalash, ularning sportga qiziqishini, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini oshirish borasida beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

O'tgan davr mobaynida bu musobaqalar yoshlarimiz hayotining ajralmas qismiga aylandi hamda ular uchun tajriba va mahorat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu sport o'yinlarining aniq dastur asosida yurtimizning barcha hududlarida muntazam o'tkazib kelinayotganligi, joylarda zamon talablariga javob beradigan, yangicha qiyofadagi muhtasham sport maskanlari, stadionlar, suzish

⁵ (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 й., 27-сон, 315-модда; 2014 й., 19-сон, 215-модда)

havzalarining barpo etilishi qishloq va shaharlarning yanada obod bo'lishida alohida ahamiyat kasb etayotganligini qayd etish lozim.

Yoshlarda sportga bo'lgan havas va intilishni, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini kuchaytirish, o'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb etish tizimini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorida quyidagi talablarni ko'rish mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida umumta'lim maktablari o'quvchilarining «Umid nihollari», akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining «Barkamol avlod» hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining «Universiada» respublika sport musobaqalarining final bosqichini davriy ravishda o'tkazish tizimi shakllanganligi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Milliy Olimpiya qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan shakllantirilgan «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» respublika sport musobaqalarining final bosqichlarini o'tkazish rejasi hamda, ushbu musobaqalarni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mitalar tarkiblari tasdiqlanishi.

Tashkiliy qo'mitalarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda mazkur sport musobaqalarini o'tkazish yuzasidan alohida dasturlar ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi yuklanganligi

Ushbu dasturlarda quyidagilar nazarga olinganligi sport musobaqalari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga sport va jismoniy tarbiya tadbirlariga ajratiladigan mablag'lar doirasida, shuningdek, homiylarning mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etgan holda o'tkazilishi;

sport musobaqalarining respublika final bosqichlari bo'lib o'tadigan hududlar va u yerda joylashgan infratuzilma obyektlarini talab darajasida tayyorlash va zamonaviy asosda jihozlash;

sport musobaqalari davomida har qaysi ishtirokchining qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini kamol toptirish, buyuk ajdodlarimizning mardlik va jasurlik anʼanalarini munosib davom ettirishga qodir insonlar boʻlib yetishishiga xizmat qiladigan madaniy-maʼrifiy tadbirlar dasturini amalga oshirish hamda oʻquvchi va talaba yoshlarning «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini oʻtkazish rejasi quyidagicha tasdiqlanganligi

Yillar	«Umid nihollari»	«Barkamol avlod»	«Universiada»
2012	Navoiy viloyati		
2013			Buxoro viloyati
2014		Namangan viloyati	
2015	Xorazm viloyati		
2016			Fargʻona viloyati
2017		Jizzax viloyati	
2018	Toshkent viloyati		
2019			Samarqand viloyati
2020		Qashqadaryo viloyati	
2021	Qoraqalpogʻiston Respublikasi		
2022			Toshkent shahri
2023		Sirdaryo viloyati	
2024	Surxondaryo viloyati		
2025			Andijon viloyati

"UMID NIHOLLARI" SPORT OʻYINLARI - Oʻzbekistonning umumiy oʻrta taʼlim va bolalar-oʻsmirlar sport maktablari oʻquvchilari oʻrtasida oʻtkaziladigan ommaviy sport musobaqalari. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligini nishonlashga tayyorgarlik

ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi (2001 y. 19 yanvar) qarori asosida tashkil etilgan hamda "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluk-siz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi (2003 y. 3 iyun) qaroriga binoan bu o'yinlarning respublika final bosqichlari 3 yilda bir marta o'tkazilishi belgilangan. Maqsadi — umumiy o'rta ta'lim va bolalar-o'smirlar sport maktablari o'quvchilarini jismonan yetuk, axloqan barkamol hamda vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, iqtidorli sportchi yoshlarni nufuzli musobaqalarga tayyorlash, yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish. "Umid nihollari sport o'yinlari" s.o'.da badiiy gimnastika, basketbol, voleybol, gandbol, yengil atletika, sport gimnastikasi, stol tennisi, suzish, tennis, futbol kabi olimpi-ada o'yinlari dasturiga kirgan va shax-mat, belbog'li kurash, kurash singari ommalashgan sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Saralash musobaqalari umumiy o'rta ta'lim va bolalar-o'smirdar sport maktablari, tuman, shahar va viloyatlarda, respublika final bosqichi bitta hududda tantanali ravishda tashkil etiladi.



"BARKAMOL AVLOD" SPORT O'YINLARI — O'zbekistonning kasb hunar kollejlari va akademik litseylari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan ommaviy sport musobaqalari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi qarori (2001 y. 19 yanvar) asosida tashkil etilgan hamda "Uquvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga (2003 y.

3 iyun)⁶ binoan respublika final bosqichlari 3 yilda bir marta o'tkazilishi belgilangan. Maqsadi — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quv muassasalaridagi o'quvchi yoshlarni jismonan yetuk, axloqan bar-kamol va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, iqtidorli sportchi yoshlarni nufuzli musobaqalarga tayyorlash, yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommaviylashtirish. "Barkamol avlod sport o'yinlari " sport.o'yinlarida badiiy gimnastika, basketbol, boks, voleybol, gandbol, yengil atletika, stol tennis, suzish, tennis, futbol kabi olimpiada o'yinlari dasturiga kirgan va shaxmat, bel-bog'li kurash, kurash singari ommalashgan sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Saralash musobaqalari o'quv yurti, tuman, shahar va viloyatlarda, respublika final bosqichi bitta hududda tantanali ravishda tashkil etiladi. Respublika final bosqichlari ilk bor Jizzax (2001)



UNIVERSIYADA—Kelajagi buyuk O'zbekistonning yosh avlodini ma'naviy yituk, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash Respublika xukumatining doimo diqqat markazida turadi.

Namanganda birinchi Universiada - 20% sport musobaqalari o'tkazildi Bir hafta davomida respublika oliy o'quv yurtlarning bir yarim ming talabasi sportning to'qqizta ommaviy turida o'z kuchi, epchilligi, mahorati va omilkorligini namoyish etdi. Navoiy viloyati jamoasi eng ko'p oliy mukofotta sazovor bo'ldi. Umumiy hisobda keyngi sovrinli o'rnlarini «Toshkent-1» jamoasi va Samarqand jamoasi sportchilari egalladilar. Universiadaning o'n besh

⁶ "Уқувчи ва талаба ёшларни спортга жалб қилишга қаратилган узлуксиз спорт мусобақалари тизимини ташкил этиш тўғрисида"ги қарорига (2003 й. 3 июнь)

qatnashchisi O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning faxriy sovrini bilan taqdirlandi, ularga mukofot tariqasida Tiko yengil avtomashinalari berildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng biz uchun unutilmas tarixiy kun bo‘lmish 1991yil 31 avgustda O‘zbekiston



mustaqilligining elon qilinishi mamlakatimiz sporti hayotida ham yangi va yorqin sahifalar ochdi. Buning tasdig‘ini sportchi yigit-qizlarimizning dunyo miqyosidagi turli nufuzli sport anjumanlarida qo‘lga kiritayotgan ulkan yutuq va natijalari misolida bugun yaqqol ko‘rmoqdamiz. Mamlakatimizda tashkil etilayotgan xalqaro miqyosdagi yirik turnirlar, Osiyo va jahon chempionatlari ham aynan shundan dalolat beradi.

Biz mustaqillik yillarida xalqimiz bosib o‘tgan g‘oyat murakkab va sharafli yo‘l haqida, shu davrda qo‘lga kiritilgan ulkan yutuq-marralarimiz to‘g‘risida gapirar ekanmiz, hech shubhasiz, qalbimizni g‘urur-iftixor tuyg‘ulari egallaydi, shu paytga qadar o‘zimiz, olis va yaqin ajdodlarimiz boshdan kechirmagan alohida yuksak kechinmalarni his etgandek bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbari yurtimiz yoshlariga, jumladan, sportchi yoshlarimizga murojaat qilar ekan, «Biz hech kimdan kam bo‘lmaganmiz va hech kimdan kam bo‘lmaymiz ham» degan



da'vatkor so'zlarni alohida takidlab aytishlari bejiz emas. Chunki dunyodagi har qaysi xalq va millatning hech kimdan kam emasligi, jismoniy va manaviy salohiyatini namoyon etishda sport beqiyos rol o'ynaydi. Shuning uchun mustaqillik yillarida yurtimizda bu soha rivojiga alohida ahamiyat berilmoqda. Sport va jismoniy tarbiya sohasiga bizning eng muqaddas orzumiz, maqsadimiz bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishning eng muhim vositasi sifatida qaralib, uning rivojiga kompleks yondashilmoqda. Shu borada erishilgan yutuqlarimizni tasavvur qilish uchun mustaqillikkacha bo'lgan davr va mustaqillik yillaridagi ayrim raqamlarni o'zaro solishtirish o'rinli bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Dastavval, yurtimizda jismoniy tarbiya va sportning huquqiy bazasini mustahkamlash bo'yicha ulkan ishlar qilinganini qayd etish lozim. Bu haqda gapirganda, avvalo 1992 yilda «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi



O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingani va u 2000 yilning 26 mayidan boshlab zamon talablari asosida yangi tahrirda kuchga kirganini takidlash darkor.

Shuningdek, Prezidentimizning 2002 yil 24 oktabrda imzolangan «O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida»gi va boshqa Farmonlari, Hukumatning bir qator qarorlari yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda ayniqsa, beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday qulay huquqiy zamin va yaratilgan moddiy-texnik baza tufayli milliy sportimiz va sportchilarimizning jahon maydonlarida erishayotgan yutuqlari tobora salmoqli bo‘lib bormoqda.

Masalan, o‘tgan asrning 1990 yilida yurtimizda 448 ming 800 nafar o‘quvchi yoki jami o‘quvchilarning atigi 7,4 foizi sport bilan muntazam shug‘ullangan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib bu ko‘rsatkich 2 million 600 ming nafarga yoki 34,8 foizga yetdi. 1990 yili O‘zbekistonda 1 ming 825 ta bolalar sporti maskani faoliyat yuritgan bo‘lsa, istiqlol yillarida ularning soni 6 mingtani tashkil etdi. etibor bering, istiqlol yillarida — qariyb 74 yillik sobiq Ittifoq hukmronligi davridagiga nisbatan salkam to‘rt barobar kam vaqt ichida — 4 ming 200 ga yaqin yoki uch yarim barobar ko‘p sport inshooti bunyod etilgan. Boshqacha aytganda, eski tuzum davrida yiliga 25 ta, istiqlolning har bir yilida esa o‘rtacha 207 tadan ziyod, yana ham aniqrog‘i, mustaqil O‘zbekistonda sobiq mustabid tuzum zamonidan ko‘ra 10 barobar ortiq sport maskani yoshlar ixtiyoriga topshirilgan.

Bolalar shug‘ullanadigan sport turlari miqdorida ham jiddiy tafovut kuzatilmoqda. Chunonchi, 1991 yili yurtimizda 52 ta sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borilgan bo‘lsa, 2011 yilga kelib ularning soni 75 taga yetdi. Albatta, bu o‘shir yangi «kashf qilingan» sport turlari hisobidan emas, balki yetarli sharoit yoqligidan bolalarimiz shug‘ullana olmagan sport turlari hisobidan taminlangani etiborlidir. eng muhimi, sport bilan shug‘ullanishni istagan yoshlarimiz endi avvalgidek mashaqqat chekib tuman markazi yoki shaharga qatnashi shart emas, balki o‘z qishlog‘ida, mahallasida, ota-onasining bag‘rida — zamonaviy talablar asosida jihozlangan sport maskanlarida o‘z sevgan sport turi bilan malakali murabbiylar qo‘li ostida shug‘ullanish imkoniyatiga ega.

Diplom mavzusi bo'yicha jisoniy tarbiya va sportga oid bo'lgan lug'aviy so'zlarga e'tibor bersak:

***sport tadbirlari** – professional va havaskor sport musobaqalarini, o'quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladigan tadbirlar;

***sport turi** – jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi bo'lib, u insonning sport musobaqalariga o'ziga xos tarzda tayyorgarlik ko'rishi bilan ajralib turadi, sport musobaqalarini o'tkazish va ularda ishtirok etishga doir talablar, tartib va shartlar belgilanadigan qoidalarga, nizomga (reglamentga) ega bo'ladi;

***sportning texnik va amaliy turlari** – sport natijalariga erishish uchun sportchi tomonidan umumiy jismoniy mashqlar majmuasidan tashqari, sport texnikasidan, moslamalaridan yoki texnikaviy vositalardan foydalana bilish va ularni boshqarish sohasidagi ko'nikmalar va mahorat qo'llaniladigan, shuningdek har xil sport turlaridan olingan, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mashqlar birikmasidan foydalaniladigan sport turlari. Sportning texnik va amaliy turlari yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismidir;

***O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari** – milliy ijtimoiy-madaniy yo'nalishga ega bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasi hududida rivojlanayotgan sport va o'yin turlari;

1.2. Madaniyat va aholini dam olish markazlarida sport to'garaklarini rivojlantirish orqali yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish masalalari.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligining madaniyat ishlari sohasida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa madaniyat va san'at maskanlari O'zbekiston Konservatoriyasi, O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti, teatrlar, kasb-xunar kollejlari, bolalar musiqa san'at maktablari, madaniyat va istirohat bog'larini bunyod etilishi yoshlarga ijod uchun aholining madaniy ehtiyojlariga, hamda madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar xususiyatga ega bo'lgan xilma-xil xizmatlar ko'rsatilishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Xukumatimiz tomonidan qo'llab quvvatlanib qabul qilingan bir qancha qarorlar jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7-oktabr "Nomoddiy madaniy meros obyektlarni muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi to'g'risida"gi 222-sonli;

2010 yil 29 dekabrda "2011–2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 322-sonli;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 martdagi PQ-1920-son qarori bilan tasdiqlangan "Obod turmush yili" Davlat dasturining 65-bandini bajarish yuzasidan hamda aholining, ayniqsa yosh avlodning o'sib borayotgan madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishini tashkil etishga ko'maklashish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat

va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 178-son qarorlari qabul qilindi.

Bu qarorlar xalqimizning necha asrlardan buyon avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan xalq ijodining san'at durdonalarini ximoyasiga, xalqimizning milliy urf-odatlarini, an'analari, udumlarini yoshlar ongiga singdirilishga, o'zbek xalqining san'atini jaxon maydonlariga olib chiqilishida, aholini ayniqsa yoshlarni madaniy dam olishlariga shart-sharoitlar yaratilishda, Madaniyat va san'at sohalarini isloh qilinishda, yangi zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etilishi va ularning moddiy texnika bazasini rivojlantirilishida dasturil amal bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etishdan maqsad ularning moddiy texnika bazasini yaratish,

“O'zbekistonning nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish, zamonaviy studiyalar, turli to'garaklarni, shuningdek badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish, aholining madaniy ehtiyojlarini o'rganish hamda madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar xususiyatga ega bo'lgan xilma-xil xizmatlar ko'rsatish, jumladan havaskorlik ashula va raqs to'garaklarini qabul qilingan qaror talablari darajasida tashkil etishdan, yangi-yangi iste'dodlarni kashf etish havaskorlikni professional darajaga olib chiqishdan iborat bo'lmog'i lozim”.⁷

Madaniyat va aholi dam olish markazida tashkil etiladigan to'garaklar bir necha turlarga bo'linadi:

JUMLADAN SPORT TO'GARAKLARI:

A) Shaxmat-shashka: bolalarda mantiqan fikrlashni rivojlantiradi, xotira hamda diqqatni charxlaydi, aqlni o'stiradi, ko'ruv analizatorining mashqiga imkon beradi. Shaxmatlar va shashkalar mashg'ulotlari ta'siri ostida asab jarayonlarining harakatchanligi hamda muvozanatlashuvi qayd qilinadi.

⁷ Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 25 июндаги “ 2013-2018 йилларда замонавий маданият ва аҳоли дам олиш марказларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 178-сон қарори.

B) Stol tennisi: – reaksiya va fikrlash tezligi, harakatchanlik, chaqqonlik, maqsadga intiluvchanlik, chidamlilikni shakllantiradi. Yuqori yelka kamari, oyoq-qo‘llar mushaklari ishini faollashtiradi. Organizmning hamma a‘zolari va tizimlari ishini rag‘batlatiradi, bolaning uyg‘un o‘sishi hamda uning tana tuzilishi rivojlanishiga imkon beradi.

V) Turizm maktab: o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalashning va tabiat qo‘ynida faol dam olishning g‘oyat qimmatli vositasi hisoblanib, chiniqtirishga xizmat qilib, sog‘likni mustahkamlaydi, chidamlilikni oshiradi, do‘stona munosabatni rivojlantiradi.

Bolalar hayot uchun muhim amaliy ko‘nikmalarni egallashadi, joyida mo‘ljall olishni, tabiiy to‘siqlarni yengib o‘tishni o‘rganishadi, turizm kardiorespirator tizimiga, markaziy asab tizimi va mushaklar tizimiga katta ta‘sir ko‘rsatadi, ularning funktsional holatini oshirib, bolalarni nostandart sharoitlarga moslashtiradi.

G) Sportning texnik turlari: bo‘yicha mashg‘ulotlar (motosport, karting). Maktab o‘quvchilarida bilimga chanqoqlik, texnikaga qiziqish va uni sevishni shakllantiradi, nostandart sharoitlarga reaksiyani tarbiyalaydi, ekstremal sharoitlarda hamjihatlik hamda intizomlilikka chorlaydi, katta harbiy-amaliy ahamiyatga ega.

D) Kurash, badiiy gimnastika, sport va nafis gimnastikasi va hokazo.

Kurashning hamma turlari mushaklarning uyg‘un rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatib, reaksiya tezligini, egiluvchanligini, g‘a‘labaga ishonch kuchini, chidamliligini, mushak tizimi faoliyatini oshirib, atletik gavda tuzilishini shakllantiradi.

Badiiy gimnastika – ayollar sporti hisoblanib, sportning yosh turlaridan biridir. . Agar sport gimnastikasi bilan taqqoslab ko‘riladigan bo‘lsa, badiiy gimnastika – sportning ancha hammabop va xavfsiz turlaridan biri sanaladi.

Qizaloqlarni badiiy gimnastika bilan shug‘ullanishga berish 5-6 yoshlardan tavsiya etiladi. Bu o‘rinda tayyorgarlik ishlarini raqs elementlariga boy bo‘lgan maxsus mashqlar orqali bolalar bog‘chasida boshlash o‘rinlidir. Gimnastikachilarni saralab olish mezonlari unchalik qat’iy emas, lekin albatta tabiatan egiluvchan va yaxshigina koordinatsiyaga ega bo‘lgan qizaloqlarni tanlab olishga harakat qilishadi. Ayrim maktablar hatto, bunday qilishmaydi – bolalarni ularning tabiiy ko‘rsatkichlaridan qat’i nazar, qabul qilaverishadi. Badiiy gimnastika uchun eng asosiysi – nafaqat tana ko‘rinishi, ko‘proq sportning bu turiga qobiliyati borligi muhim sanaladi. Badiiy gimnastika chiroyli qomatni shakllantiradi, gavdani to‘g‘ri tutish, kuchga to‘lgan mushaklar, kun tartibi, bo‘sh vaqtdan muvozanatlashgan holda foydalanish mahorati, tengdoshlari bilan har tomonlama erkin muloqot qila bilish, zarur harakatli malakalarini har tomonlama rivojlantirishga imkon beradi. U egiluvchanlik, epchillik, chidamlilikni oshirib, odamni intizomli qilib, tanani mukammallashtiradi, chiroyli va nafosatli harakat qilishga o‘rgatadi va o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini mustahkamlaydi.

Badiiy gimnastika mashqlari kuchli holda asab, yurak-qon tomir va bolalar organizmining nafas tizimlari chidamliligini rivojlantiradi, diqqatni jamlashning turg‘unligini tananing noxush sharoitlarga bo‘lgan turg‘unligi va immunitetini oshirada.

E) Velosport – oyoq-qo‘llar hamda orqa mushaklarini rivojlantiradi va mustahkamlaydi, organizm faoliyatini takomiliga yetkazish uchun ichki zaxiralarni safarbar qiladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari qoshida tashkil etiladigan sport sog‘lomlashtirish maydonchasining ish rejasini misol tariqasida oladigan bo‘lsak.

Namuna masalan -madaniyat va aholi dam olish markazi rahbari tomonidan tasdiqlangan sport to‘garagining ish rejani taqqoslash va quyidagilarga e‘tibor qaratamiz.....

- 1.Rahbar tomonidan mo‘hr va tasdiqlanganligi haqida imzo qo‘yiladi.
- 2.Mashg‘ulotlar va to‘garaklar o‘tkaziladigan sanasi.

3. O'tkaziladigan to'garak nomi.

4. O'tkaziladigan to'garakga ma'sul yoki to'garak rahbari.

“Madaniyat va aholi dam olish markazi” qoshidagi yozgi sport sog‘lomlashtirish maydonchasining ish rejasini madaniyat va aholi dam olish markazi rahbari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Yozgi sport sog‘lomlashtirish maydonchasining ish rejasining bajarilishi madaniyat va aholi dam olish markazi qoshidagi to‘garak rahbari tomonidan nazorat qilib boriladi.

Yozgi sport sog‘lomlashtirish maydonchasida olib borilayotilgan ishlar yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatilganligi va qilinayotilgan ishlar yuzasidan tegishli hududiy boshqarmalarga hisobot berib boriladi

“Madaniyat va aholi dam olish markazi” qoshidagi yozgi sport sog‘lomlashtirish maydonchasining ish rejasini quyida ko‘rsatilgan namunali reja asosida olib boriladi.

Sana 6.06.2016 yil Dushanba

Tadbir nomi-

1. “Qaldirg‘och” nomli sog‘lomlashtirish sport maydonchasining ochilishi.
2. Sport to‘garaklarining ahamiyati yuzasidan davra suhbat.
3. “Karate – DO”
4. Stol tennisi
5. «Sport-sog‘lik garovi» mavzusida taniqli sportchilar haqida suhbat.

Mas’ullar- Cport to‘garak rahbarlari.

Mashg‘ulotlar o‘tadigan joylar,

1. “Qaldirg‘och” nomli sog‘lomlashtirish sport maydonchasining ochilishi.
(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 16-00)

2. Sport to‘garaklarining ahamiyati yuzasidan davra suhbat. (“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 15-00)
3. “Karate – DO” (147-maktab sport zali 16-00)
4. Stol tennisi (24-maktab sport zali 16-00)
5. «Sport-sog‘lik garovi» mavzusida taniqli sportchilar haqida suhbat.
(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 16-00)

Sana 7.06.2016 yil Seshanba

Tadbir nomi-

- 1.“Qaldirg‘och” nomli sog‘lomlashtirish sport maydonchasining ochilishi.
2. Sport to‘garaklarining ahamiyati yuzasidan davra suhbat.
3. “Karate – DO”
4. Stol tennisi
5. «Sport-sog‘lik garovi» mavzusida taniqli sportchilar haqida suhbat.

Mas’ullar- Cport to‘garak rahbarlari.

Mashg‘ulotlar o‘tadigan joylar,

- 1.“Qaldirg‘och” nomli sog‘lomlashtirish sport maydonchasining ochilishi.
(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 16-00)
2. Sport to‘garaklarining ahamiyati yuzasidan davra suhbat.
(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 15-00)
3. “Karate – DO” (147-maktab sport zali 16-00)
4. Stol tennisi (24-maktab sport zali 16-00)
5. «Sport-sog‘lik garovi» mavzusida taniqli sportchilar haqida suhbat.

(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 16-00)

5. Shaxmat (24-maktab sport zali 16-00)

6. Futbol fanatlari to‘garagi

(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 15-00)

Sana 6.06.2016 yil chorshanba

Tadbir nomi-

1.“Qaldirg‘och” nomli sog‘lomlashtirish sport maydonchasining ochilishi.

2. Sport to‘garaklarining ahamiyati yuzasidan davra suhbat.

3. “Karate – DO”

4. Stol tennisi

5. «Sport-sog‘lik garovi» mavzusida taniqli sportchilar haqida suhbat.

Mas’ullar- Cport to‘garak rahbarlari.

Mashg‘ulotlar o‘tadigan joylar,

1.“Qaldirg‘och” nomli sog‘lomlashtirish sport maydonchasining ochilishi.

(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 16-00)

2. Sport to‘garaklarining ahamiyati yuzasidan davra suhbat. (“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 15-00)

3. “Karate – DO” (147-maktab sport zali 16-00)

4. Stol tennisi (24-maktab sport zali 16-00)

5. «Sport-sog‘lik garovi» mavzusida taniqli sportchilar haqida suhbat.

(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 16-00)

Sana 7.06.2016 yil Payshanba

Tadbir nomi-

1. “Qaldirg‘och” nomli sog‘lomlashtirish sport maydonchasining ochilishi.
2. Sport to‘garaklarining ahamiyati yuzasidan davra suhbat.
3. “Karate – DO”
4. Stol tennisi
5. «Sport-sog‘lik garovi» mavzusida taniqli sportchilar haqida suhat.

Mas‘ullar- Cport to‘garak rahbarlari.

Mashg‘ulotlar o‘tadigan joylar,

1. “Qaldirg‘och” nomli sog‘lomlashtirish sport maydonchasining ochilishi.
(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 16-00)
2. Sport to‘garaklarining ahamiyati yuzasidan davra suhbat.
(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 15-00)
3. “Karate – DO” (147-maktab sport zali 16-00)
4. Stol tennisi (24-maktab sport zali 16-00)
5. «Sport-sog‘lik garovi» mavzusida taniqli sportchilar haqida suhat.
(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 16-00)
6. Shaxmat (24-maktab sport zali 16-00)
7. Futbol fanatlari to‘garagi
(“Madaniyat va aholi dam olish markazi” soat 15-00)

“Madaniyat va aholi dam olish markazi” qoshidagi yozgi sport sogʻlomlashtirish maydonchasining ish rejasini boytish yuzasidan yana quyidagi toʻgarakalarni taqdim etish mumkin:

Turizm maktab” toʻgaragi, Milliy xalq oʻyinlari, dam oluvchilar oʻrtasida «Barkamol avlod vakillarimiz» shiori ostida sport musobaqalarini va «Quvnoq startlar» estafeta oʻyinlarini tashkil etish, «Sport-sogʻlik garovi» mavzusida taniqli sportchilar haqida suhbatlar, ayrobika toʻgaragi, yozgi sport sogʻlomlashtirish maydonchasi tarbiyalanuvchilari oʻrtasida «Eng yaxshi sportchi» koʻrik-tanlovini tashkil etish

“Madaniyat va aholi dam olish markazi” qoshidagi yozgi sport sogʻlomlashtirish maydonchasining ish rejasini bilan hamkorlikda sport muasasalari birgalikda faol ish rejasini ham amalga oshirish mumkin.

Katta sport tadbirlarini tashkil etishda hamkor madaniyat va aholi dam olish markazlari dasturlari va ish rejalarida koʻrsatilgan madaniy maʼrifiy tadbirlar oʻtkazishda tadbirlarni oʻztkazish obeʼktlari boʻlmish tomoshogoh maydonlar boʻlib katta stadionlar, madaniyat va istrohat bogʻlari xizmat qiladi shunday ekan madaniy dam olish tadbirlari bilan birga xalq tomosha sanʼati milliy sport oʻyinlarimizning kurash, arqon tortish, tosh koʻtarish kabi turlari, bulardan tashqari shaxmat-shashka, muay-tay, stol tennisi boʻyicha ham musobaqalar oʻtkazilishi bilan bir qatorda, "Oʻzbek jang sanʼati" hamda zamonaviy avtoralli maxsus texnikalarining koʻrgazmali chiqishlari ham tashkil etiladi.

Ayniqsa milliy bayramlarimizda milliy sport oʻyinlarimizning turli qiziqarli turlari bilan badiiy jamoalarning dasturlarining omuxtaligi aholining yanada yaxshi dam olishlariga xizmat qiladi.



Madaniyat va aholi dam olish markazlari qoshidagi sport to‘garaklari a‘zolari yoki oddiyroq qilib aytganda sport to‘garak qatnashchilari (shaxmat-shashka, stol tennisi, badiiy gimnastika, ayrobika, sport gimnastikasi) va hokazo.



Madaniy tadbir shaklida o‘tkaziladigan sport bilan bog‘liq o‘yinlar qo‘shiq, musiqa jurligidagi o‘yinlar ko‘zda tutilmoqda, musiqkali o‘yinlar yoshlarning estetik tarbiyasiga yordam beradi.

Bunday o‘yinlarga jalb qilishning zaruriy faktorlaridan biri musobaqalashish elementidir.

Hatto «Bo‘sh joy» yoki «Ortiqcha» kabi sodda o‘yinlarda ham o‘yinchilarni g‘alabaga bo‘lgan intilishi yorqin ifodalanadi: davrani tez chopib o‘tish, sherigini quvib yetish yoki undan qochib qutulish.

Qatnashuvchilari guruhlariga bo‘linadigan, jamoalar va har bir guruh yoki jamoa, jamoaning har bir a‘zosi yaxshi natijaga erishishga, g‘alaba qilishga intiladigan o‘yinlar yanada yorqinroq musobaqa xarakterini kasb etadi. Buning ustiga ayrim guruhviy o‘yinlarda signalga ko‘ra barcha qatnashuvchilar darhol harakat qiladilar («Kun va tun» va boshqalar) va o‘yinlarning har birining harakati boshqalarning divdat markazida bo‘lmaydi, boshqa o‘yinlar («Nomerlarni chaqirish», barcha o‘yin-estafetalar va boshqalar)da har bir o‘yinchi harakatini jamoaning qolgan barcha a‘zolari kuzatib turadilar.

Milliy sport elementlari bilan bog‘liq xalq sport o‘yinlaridan ”Tezda joy-joyiga”, “Bo‘ri—g‘ovda”, “Xakkalag‘on qushchalar”, “Chiziqlar bo‘ylab sakrash”, “Chavandoz sportchilar”, “Nishonga aniq ur” va hokozalar...

O‘tgan avlodlarning bizga meros qilib qoldirgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq o‘yinlari ham kiradi. Xalq o‘yinlari o‘zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko‘ra g‘ayri oddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini muayyan aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyotining qonunlari bilan belgilanadigan maqsadli faoliyatdir. Xalq o‘yinlari xalq ijodiyotining xos janri bo‘lib. ko‘p asrlik tarixga ega. O‘yinlar xalq tomonidanyaratilgan va kishilarning kundalik hayotidagi voqealar hamda hodisalarni o‘z ichida aks ettiradi. Taassurotlarni, kuzatishlarni tajriba va hissiyotlarni gavdalantirib. o‘zida so‘z, musiqa, raqs shakllarini mujassamlashtirgan. Masalan, ibtidoiy tuzumda bolalarni tarbiyalashning xarakterli jihati — ularni urf — odati, an‘analari tarixi bilan, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi: rivoyatlar, qo‘shiqalar raqsalar bilan ifoda etgan. O‘zbek xalq

o‘yinlari xalq ijodiy faoliyatining bir turidir. Ularni xalq yaratgan va keng xalq ommasiga tarqatgan. Hozirga qadar o‘zbek xalqi o‘zining tantanalarini katta tomoshalar — sayillar bilan nishonlanadi. Masalan, ommaviy tomoshalar, sayillar, Navro‘z ayyomida, Hosil bayramlarida xalq o‘yinlaridan keng foydalanilgan. Sayillar vaqtida «Olomon poyga», "Qiz quvish", «Kurash», «Ag‘darish», Ko‘pkari", «Duppi yashir» kabi musobaqa o‘yinlari, sport o‘yinlari sifatida o‘tkazilib kelinmoqda. O‘zbek xalq o‘yinlarining ko‘pida milliy musiqa asboblaridan karnay, surnay, nog‘ora, childirma asboblaridan foydalaniladi. Hozirgi vaqtda o‘zbek xalq o‘yinlarining asosiy vazifasi o‘z mazmuni hamda metodikasi bilan bolalarni jamiyatimiz talablariga muvofiq tarbiyalashni ta‘minlash, ularda axloqiy, irodaviy sifatlarini rivojlantirish, sog‘lom bo‘lish, ijodkorlikka xos bilim-ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishdan iorat. O‘zbek xalq o‘yinlaridan foydalanish muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘yin bolaning o‘z faoliyati ekani, undagi tashabbuskorlikni va mustaqillikni saqlash hamda rag‘batlantirish zarurligini hisobga olish kerak. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiya jarayonida faoliyatning bir turi sifatida namoyon bo‘ladi, mehnat va o‘qish bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek xalq o‘yinlarining ana shu eng muhim xususiyatlaridan biri ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. O‘zbek xalq o‘yinlarini o‘rganish tarbiya jarayonini uzluksiz yangilaydi, o‘quvchilarda hayotiy vaziyatlarni yaxshi anglash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bilishga juda qiziqish uyg‘otadi, shuningdek, ularga o‘z xalqining tarixi va hayotining turli sohalariga, moddiy va ma‘naviy madaniyatiga, ijtimoiy turmush tarzi, odatlari va an‘analariga taalluqli ma‘lumotlarni beradi. Ularning kuchli, chaqqon, serharakat, ziyrak, topqir, o‘zaro hamkor bo‘lishiga yordam beradi. O‘zbek xalq o‘yinlaridan namunalar: **«Olomon» o‘yini**. O‘yinning qisqacha mazmuni: O‘yinda istalganchabola qatnashish mumkin. O‘yinda boshqaruvchi tanlanadi. Qolganlar uning atrofida aylana hosil qilib turadilar. Boshqaruvchining ishorasi bilan bolalar chapak chalib, xakkalab yuguradilar. Ular yugurayotganda boshqaruvchi belbog‘ni tashlaydi. Bolalar belbog‘ni ilib oladilar. Jihozlar: milliy kiyimlar, belbog‘. O‘yin vaqti: 20 daqiqa. **«Uloq» o‘yini**. O‘yinning qisqacha

mazmuni: O'quvchilar ikki jamoaga bo'linib, diametri 6-8 metrli aylana chizig'ini tashqarisida turadilar. Aylana o'rtasida turgan boshqaruvchi aylanaga to'pni tashlaydi. O'quvchilar to'pga yugurishib, uni tutib olishga va aylanadan tashqariga qochishga intiladilar. Bunda bolalar bir — birlarining qo'llaridan to'pni yulqib olishlari ham mumkin. Jihozlar: milliy kiyimlar. jamoalar uchun belgilar, latta koptok. O'yin vaqti: 15-20 daqiqa. «**Darvozalar**» o'yini. O'yinning qisqacha mazmuni: O'yinda o'quvchilar soni cheklanmaydi. Arqon tortiladi yoki yo'g'onligi 10 sm, uzunligi 4-5 metr chiziq o'tkaziladi. O'quvchi shu chiziqdan arqonda yurgandek yuradi, uning ustida raqs harakatlarini bajaradi hamda ko'zini boylab yuradi. Arqondan yiqilmay o'tgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. O'yin paytida musiqa yangraydi. Jihozlar: bolalar karnay va surnaylari. O'yin vaqti: 10-15 daqiqa. O'zbek xalq o'yinlarining orasida g'oyaviy-siyosiy, aqliy, axloqiy, mehnat va jismoniy tarbiya bilan bog'liq o'yinlar ham bor. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan biri shuki, ular bolalarda vatanparvarlik, baynalminalchilik, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hurmat kabi ma'naviy, siyosiy tuyg'ularni shakllantirishda katta ta'sir ko'rsatadi. Xalq milliy o'yinlaridan foydalanish. a'lim tizining barcha bosqichlarida o'quvchilarni bo'sh vaqtlarida qo'llashbu milliy qadriyatlarning, meroslarning ulug'lanishiga, rivojlanishiga, yanada ko'p yillar mobaynida davom ettirilishiga olib keladi.

Mamlakatimizda badiiy sport tadbirlarini tashkil etish borasida ham katta ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda.

Bugungi kunga kelib badiiy sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha bir qancha tadbirlarni sanab o'tish mumkin. Sport va san'at sohalari mamlakatimizni dunyoga tarannum qiluvchi o'ta katta qudratli vositalardan biri ekanligi hammamizga ma'lum.

Badiiy sport tadbirlarini tashkil etishdan maqsad –sog'lom turmush tarzi, insonlar salomatligi, ularning ham ma'nan ham jismonan yetuk bo'lishlari, bir so'z bilan aytganda – insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularga ma'nan hamda jismonan madad berish,

Yurtimiz mustaqillikka erishgach sport tomoshalarining badiiy jihatlariga katta e'tibor berila boshlandi. Shu jihatdan olib qaralganda yurtimizda sport ishlarini yanada takomillashtirish borasida ko'plab hayrli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston televideniya-sida "Sport" kanalining faoliyati bunga misol bo'la oladi.

"Jamiyatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar insonlar hayotining asosiy qismini qamrab olganligi bois ma'naviy va jismoniy sog'lomlik jamiyatda ish yuritayotgan, faoliyat ko'rsatayotgan barcha shaxslarga nisbatan eng oliy ne'mat hisoblanadi.

Sport va san'at – bu mamlakatni boshqa yurtlarga tanishtiruvchi vosita, elchi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatida sport va san'atni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va farmonlar, farmoyishlariga guvoh bo'lamiz. «Sog' tanda sog'lom aql» deganlaridek, jamiyat uchun ham sog'lom insonlar zarurdir»⁸.

Badiiy sport tomoshalarini yaratishda senarist rejissyor va sportchi-murabbiy bilan maslahatlashgan holda ularning xatti-harakatlarini qog'ozga tushirishga harakat qiladi. Bunday tadbirlar asosan, musobaqa shaklida o'tkaziladi. Unga teatrlashtirish usullarini qo'llash esa tadbirning badiiy jihatlarini yanada ko'chaytirishga, faollashtirishga sabab bo'ladi va natijada tomoshabin o'zi kutmagan rohatbaxsh manzaralarga duch keladi, tomoshaga nisbatan faolligi oshib boradi.

San'at noziklikni, mayinlikni, jozibadorlikni, sport esa qat'iyatni, jismoniy baquvvatlilikni, qattiqqo'llikni talab qiladi. Tashqaridan qaraganda bu ikki hodisani bir-biriga bog'lash mumkin emasday tuyuladi. Bunday muvaffaqiyatli uyg'unlikka faqat teatrlashtirish usullari orqali erishish mumkin.

Teatrlashtirilgan sport tomoshalariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Afinada bo'lib o'tgan Olimpiada oyinlarining ochilish va yopilish qismlaridagi teatrlashtirish usullarining yuksak mahorat bilan qo'llanganligi bunga misol bo'la olishi mumkin.

Har bir tadbir tomoshasini sahnalashtirish jarayonida rejissyor o'z oldiga oliy maqsadni qoyadi. YA'ni, bunday tadbirlar tomoshalarining bir-biriga beg'araz, nafrat ko'zi bilan qarashiga yo'l quymasliklari, bir-birlariga nisbatan dushmanga aylanib qolmasliklari, bir-birlarini raqib sifatida emas, do'st, aka-uka sifatida qabo'l qilishga, mag'lubiyatni tan olib, yanada ko'proq mehnat qilishlarini tushunib

⁸ Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси.-Т.: Ўқитувчи, 1996.-125 б

olishlari va eng asosiysi bir-birlariga hurmat nuqtai nazarida munosabatda bo'lishlariga erishish lozim.

Badiiy sport tomoshalarining yaqqol namunalarini turli sport musobaqalari, Olimpiada o'yinlarining ochilish yoki yopilish marosimlarida kuzatish mumkin.

Sport va san'at alohida soha bo'lsalar ham ularning asl maqsadlari bir xildir.

Badiiy sport tomoshalarini tashkil etish asosan musobaqa, bellashuvlar asnosida tashkil etiladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- sport maydonini, ya'ni tadbir o'tadigan joyni o'rganish;
- sportchilar va san'atkorlar chiqishlarini ketma-ketligini ishlab chiqish;
- sport va san'at uyg'unligiga erishish;
- sport sohasini badiiylashtirishga oid usullarni ishlab chiqish;
- repititsiyalarni tashkil etish va boshqa ish jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarni tahlil qilish va ishlarni rejalashtirish;

Badiiy sport tomoshalarini o'tkazishda tadbir tashkilotchilari sport va ijod sohalarining uyg'unligiga erishishlari lozim bo'ladi.

2. BOB. MADANIY TADBIRLAR VA SPORT TO‘GARAKLARI “MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZI”NING QISMI SIFATIDA

2.1. Madaniy tadbirlarda sportning milliy xalq o‘yinlardan foydalanish zaruriyatlari.

Ayni vaqtda ma’naviy barkamol inson tushunchasi sog‘lom avlod tushunchasi bilan ham bog‘lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida – alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson ahloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Bu borada yurtboshimizning quyidagi sabog‘i ibratlidir: “Biz sog‘lom avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog‘lom kishi deganda faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki Sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalari ruhida kamol topgan insonni tushunamiz”.⁹ Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Sharqona odob–axloq va umumbashariy g‘oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma’naviyatli, ya’ni ma’naviy barkamol, komil inson hisoblanadi.

O‘sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy g‘urur tuyg‘usini o‘stirishda shonli tarix va buyuk ajdodlarimizning boy merosini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Tarixan shakllangan bebaho merosini asrab avaylash va ularni o‘rganish hamda o‘z hayoti davomida tatbiq qilish, keyingi avlodga o‘rgatish ishlari o‘zbek xalqining oliy fazilatlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O‘rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati» mavzuidagi xalqaro konferensiyasidagi nutqida «...o‘rta asrlar sharq alloma va mutafakkirlarining ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг «Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти» мавзuidaги халқаро конференциясидаги нутқиди

va roliga baho berishdan iborat»,¹⁰ deb ta’kidladi. Ayniqsa, sharq mutafakkirlarining yosh avlodning ma’naviy jihatdan sog‘lom o‘sishi borasida odob–ahloq masalalariga oid asarlarini o‘rganish lozimdir.

Ma’naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma’naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o‘ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.

Sog‘lom deganda, biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma’naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, axloqiy pok, ma’rifatli farzandlarni, avlodni tushunmog‘imiz kerak. Bunday kishilar o‘zlarida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari – imon va insof, mehr – oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o‘zaro hurmat, yuksak Vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g‘oyalarni mujassamlashtirgan bo‘lishlari lozim.

Barkamol avlod – jamiyat taraqqiyotining asosidir. Shu bois yurtimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq ham jismoniy, ham ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh etish, uni rivojlantirishda sport va jismoniy tarbiya ham yetakchi omillar sirasigaga kiritildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan tashkil etilgan Markaziy Osiyo mintaqasi uchun mutlaqo yangilik bo‘lgan uch bosqichli sport musobaqalari tizimining yo‘lga qo‘yilishi chinakam olamshumul voqelik bo‘ldi. Tasavvur qilaylik, bir o‘quvchi sport bilan muntazam shug‘ullanib, “Umid nihollari” sport musobaqalarida o‘z omadini birinchi marta sinovdan o‘tkazsa, kasb-hunar kollejida tahsilni davom ettirib, “Barkamol avlod” sport o‘yinlarida ikkinchi bor katta maydonda kurashga kirishadi, sinovlarda toblanadi.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг «Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига даги роли ва аҳамияти» мавзусидаги халқаро конференциясидаги нутқида

Nihoyat, oliy o‘quv yurtida o‘zi tanlagan kasbning mohir ustasiga aylanish bilan birga Universiadada qatnashib, yuksak marralarni zabt etishi imonini ham qo‘lga kiritadi.

Keyin u jahon chempionatlari yoki olimpiya o‘yinlarida qatnashmagan taqdirda ham ,asosiysi, sport bilan bir umrga oshno bo‘lib, sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotiy qoidasiga aylantiradi.

Ko‘rib turganimizdek, uzoqni ko‘zlagan holda g‘oyat puxta va chuqur o‘ylangan uch bosqichli sport musobaqalari tizimi bir navqiron avlod vakilining bolalik davridan to kamolotga yetgungacha bo‘lgan ulkan davrni qamrab olmoqda.

Har bir ishning yorug‘ istiqboli—ko‘ngilli yakuni uning qay tarzda boshlanishiga bog‘liq. Shu ma’noda aytsak, yoshlarimizning sog‘-salomat hamda barkamol bo‘lib ulg‘ayishi ular orasida o‘zaro do‘stlik rishtalarining shakllanishi, hech kimdan kam bo‘lmay, jahon ayvonida munosib o‘rin egallashida hamda muhtasham sport inshootlari kimgadir maqtanish yoki atrofga ko‘z-ko‘z etish emas, balki shu Vatan ertasi bo‘lgan yosh avlodning komil bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qilishi uchun qad rostlayotganini xalqimiz, xususan, ota-onalar shuuriga yetkazishda uch bosqichli sport musobaqalarining ahamiyati beqiyosdir bunday sportga e’tibor o‘z mevasini berishda davom etmoqda.

O‘zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ijod boyliklarini to‘plash, o‘rganish, bu boy xazinalar asosida yosh avlodni ma’naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunnig dolzarb masalalaridan biridir.

Bu esa yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga katta ma’suliyatli vazifalar qo‘yadi. Yosh avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga qaratilgan jismoniy madaniyatini milliyashtirishiga, bunda xalqimizning unitilib borayotgan milliy o‘yinlarini to‘plash, hayotga-maktabga tadbiq etish, rivojlantirish yo‘llari va usullarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'zbek xalqining ko'p yillar davomida shakllangan, avlodlariga meros bo'lib qolgan milliy o'yinlaridan foydalanish mustaqillikka erishgan bugungi kunlarimizda juda ham zarur.

Sport turlarini o'z ichiga olgan xalq o'yinlari katta maydonlarda, madaniyat va istirohat bog'larida, stadionlarda o'tkazilishni hisobga oladigan bo'lsak bu tadbirdan ko'tilayotgan natija kishilar sog'ligini mustahkamlash va sport turlari ayniqsa sportning xalq o'yinlariga yoshlarda muhabbat o'yg'otish deb qaraladi.

Xalqning sog'lig'ini mustahkamlash ularning bo'sh vaqtlarini samarali o'tishida sport bilan bog'liq madaniy madaniy ommaviy tadbirlar mamlakatimizdagi jismoniy madaniyatning asosiy vazifasidan biridir.

Istiqlol davrida, ayniqsa, sport va jismoniy tarbiyaga e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Jismoniy tarbiya oldida jismoniy madaniyat va sportni xalqimizning hayotiga ko'proq singdirish; yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning barcha turli-tuman shakllaridan, jumladan, xalq an'analaridan keng foydalani, insonlarning sog'ligini yaxshilash va ularni Ona Vatan mudofaasiga tayyorlash va shu singari katta vazifalar turibdi.

Xalqimizning milliy o'yinlari esa ana shu maqsadda keng qo'llanib kelinayotgan muhim jismoniy va sport vositalaridan biridir. Shuning uchun xalq milliy o'yinlariga e'tiborni kuchaytirish zaruriyati yanada yaqqol ko'rinmoqda.

Qadriyatlarga e'tibor qaratish Sharq xalqlari madaniyatining juda ko'p unsurlari (elementlari) ni saqlab qolishga va ulardn amaliy foliyatda foydalanishga imkoniyat yaratiladi. qadimgi mahalliy xalqlarimiz uchun an'anaviy milliy o'yinlar va milliy bellashuvlar qachonlardir ular hayotining ajralmas bir qismi bo'lgan, ular xalq marosimlarida, rasm-rusumlarda va urf-odatlarda mustaqil bir soha sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan, mustahkam o'rin olgan jismoniy madaniyatning, rasm-rusumlarida va mustaqil bir soha sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan, mutahkam o'rin olgan.

Jismoniy madaniyatning bunday o'ziga vositalar yordamida bobolarimiz o'sib kelayotgan avlodda chaqqonlik, epchillik, kuchlilik va sabr-toqat kabi xususiyatlarni shakllantirganlar.

Farzandlarini hayot qiyinchiliklariga va tabiatning qiyinchiliklariga nisbatan bardoshli, baquvvat qilib tarbiyalaganlar.

Yosh avlodning jismoniy jihatdan to'kis sog'lom mehnatga va Vatanni himoya qiluvchi tarzida o'sishidan xalq ham, jamiyat ham manfaatdor. Buning uchun o'quvchilar jismoniy madaniyat bilan chuqur shug'ullanishlari, turli milliy o'yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari kerak bo'ladi.

Bu esa yosh avlod tarbiyasini yanada kuchaytirish, ularni o'z xalqi, mustaqil davlati vajamiyati oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g'oyat muhim vazifalar bilan bog'liqdir. Bolalarda maktabda o'qiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkoni yaratiladi.

“Bunda jismoniy madaniyatning barcha zamonaviy vositalari bilan birga o'zbek xalq milliy o'yinlari juda qo'l keladi, chunki bu o'yinlar bolalarni jismoniy, ruhiy, ma'naviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini o'z ichiga ola biladi. Zero, millatning kelajagi bo'lgan yoshlarni sog'lom, yetuk va komil inson qilib tayyorlash mustaqil O'zbekistonimiz keljagining zamini mustahkam bo'lishiga xizmat etadi¹¹”.

Milliy xalq o'yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o'zgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmun va qoidalarida o'zining muayyan izini qoldirgani haqida yuqorida to'xtalgan edik.

Ba'zi o'yinlarning nomi va qoidalari hozircha saqlanib qolgan ana shunday o'yinlardan foydalanishda ularning yoshlarga jismoniy ta'sirdan tashqari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ham nazardan soqit qilmaslik, ijodiy qo'llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak. Masalan, «Uloq» o'yini deganda odatda ot bilan o'ynaladigan, chavandozlar haqiqiy uloq uchun kurashadigan qadimiy

¹¹ I.A.Karimov. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori ". "Manaviyat".

ko'pkari o'yini tushuniladi. Bolalarga mo'ljallangan «Uloq» o'yini otsiz o'tkaziladi, o'yinchilar bir parcha echki terisi yopishtrilgan to'ldirma to'pni olish uchun kurashadilar.

O'yin qoidalarining ba'zi jihatlari kattalarning ko'pkari-uloq o'yiniga o'xshab ketadi. Tezkorlik, chaqqonlik va kuchlilikni tarbiyalovchi bu o'yin katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, bunda bir-birini hurmat qilish, samimiy munosabat, qo'pollik qilmaslikka katta e'tibor beriladi.

Xalq milliy o'yinlari yoshlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Chunki o'yinlar qatnashchilarning qiziqishlarini oshiradi, ularga zavq bag'ishlaydi, ish qobiliyatlarining tezroq tiklanishini ta'minlaydi. O'yinlar tufayli ishtirokchilar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishga harakat qiladilar.

Xalq milliy o'yinlarining barchasi yoshlarning organizmlariga yaxlit ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiy jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi sifatida qarash lozim. Bironta o'yin yo'qki, u ayrim jismoniy sifatni rivojlantiruvchi vosita bo'lib hisoblanmasin.

Masalan, «Do'ppi kiyishda kim g'olib?» milliy o'yinida faqat chaqqon bo'libgina qolmay, balki epchil, sezgir bo'lishga ham da'vat etiladi.

Jismoniy madaniyat tizimidagi barcha soha va bosqichlarning birdan-bir va yagona maqsadi-insonni to'g'ri yashashga tayyorlashdir.

Milliy xalq o'yinlarini o'rganish jarayonida ahloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyalarini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar vujudga keladi. Xalq o'yinlarini bajarish chog'ida qatnashchilar harakatida ijobiy (hamjihatlik, intizomlik, kamtarinlik, mehribonlik) va ma'naviy fazilatlar (halollik, odillik, do'stlik tuyg'usi hamkorlik, zamon bilan hamnafas bo'lib ishlay olish qobiliyati, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarish)ni tarbiyalash, shuningdek, irodaviy xususiyatlar (jasorat, qat'iylilik, o'z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni sobitlik bilan yengish, chidamlilik va hako'zolar) ni namoyon qilish uchun eng yaxshi sharoit va imkoniyatlar vujudga keladi.

Masalan “Chaqqon oyoqlilar jamoasi” uyini oladigan bo‘lsak-

Barcha o‘yinchilar ikki, uch, turt jamoaga bo‘linadi.

Jamoalar o‘yin maydonining atrofiga shunday joylashishlari kerakki, hammaga barcha narsa kurinsin (skameykaga o‘tirish ham mumkin).

Umumiy start chizig‘i belgilanadi. O‘nga har bir jamoadan bittadan o‘yinchi kelib turadi. Startda turgan xar bir o‘yinchidan 12—16 qadam uzoqlikda doira chizilgan, unda yogoch tayoqcha yotibdi.

O‘yinchilar boshlovchining signali buyicha doira tomon chopadilar, tayoqcha olib, uni uch marta yerga (polga) urib, qayta doiraga qo‘yadilar va orqaga qaytadilar. Birinchi bo‘lib yugurib kelgan o‘yinchi o‘z jamoasiga bir ochko, ikkinchi bo‘lib kelgan o‘yinchi esa ikki ochko keltiradi va hokazo.

Jamoadagi barcha bolalar navbat bilan bellashadilar.

Eng kam ochko to‘plagan jamoa g‘olib chiqadi.

Variant: o‘yinchilar doira tomon va orqaga tugri chiziq buylab emas, balki yul ustiga qo‘yilgan chillak to‘nka, bulavalarni aylanib chopadilar.

Yana bir o‘yinga e‘tibor beramiz- “Uzoqqa uloqtirish bilan vaqtdan yutish”-Barcha o‘yinchilar ikki jamoaga bulinadilar. Har bir jamoa o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi.

Start chizig‘iga quyidagicha turiladi: o‘ngda—birinchi jamoaning bir guruhi, har birining oraligi 2—3 m, chapda — ikkinchi jamoaning bir guruhi. Ularning barchasi yuguruvchilardir. Ulardan 2 metr oraliqda uloqtiruvchilar turadi. Bunda bir jamoaning yuguruvchilari ketidan ikkinchi jamoaning uloqtiruvchilari turadi.

Har bir uloqtiruvchida bittadan oddiy rezina to‘ldirma to‘p yoki tennis to‘pi bo‘ladi.

Jamoalarning to‘plari turli rangda bo‘lishi lozim.

Boshlovchining signaliga ko‘ra o‘loqtiruvchilar to‘plarni iloji boricha o‘zoqroqqa o‘loqtiradilar. Yuguruvchilar to‘p ketidan yugurib ketadilar va o‘z jamoalariga tegishli rangdagi to‘plarni olib tezda endi finish chizig‘i hisoblangan start chizig‘iga qaytadilar. Barcha yuguruvchilari to‘p bilan finishga oldin yetib kelgan jamoa bir ochkoga erishadi.

Shundan so‘ng o‘yinchilar joy almashadilar va o‘yin davom etadi,

“Quyonglar — polizda” o‘yini- Maydonchada (zalda) ikkita birlashgan doira chiziladi, biri katta (diametri 8—12 m)—poliz, ikkinchisi kichik (diametri 2—4 m) — qorovul uyi, unda o‘yimboshi turadi. Quyonglar katta doira orqasida turadilar, o‘qituvchining oignaliga kura quyonglar doira ichiga sakraydilar, maydon bo‘ylab sakrab yuradilar, undan sakrab chiqadilar. Qorovul poliz bo‘ylab chopib yuradi va quyonglarni to‘tishga harakat qiladi; tutilgan quyonglarni uyga olib ketadi. Uch-turt quyong tutilgach, yangi o‘yimboshi tayinlanadi.

“Tortishmachoq” o‘yini-Maydon yoki katta xona markazidan ikki tomonga orasi 3 metr dan ikkita chiziq o‘tkaziladi. Ikkala komandaning o‘yinchilari uzun arqonning ikki tomoniga o‘tib, uni qo‘llariga olib turadilar. Bunda arqonning o‘rtasi belgilab qo‘yiladi. Bu belgi markaziy chiziq ustida turishi lozim. Rahbarning signali bilan har qaysi komanda arqonni o‘z tomoniga tortadi. O‘yinchilarning uch marta urinishlaridan so‘ng raqib komandasini ikki marta chiziqdan tortib olgan komanda g‘alaba qiladi.

“Tosh ko‘tarar” o‘yini-Bu o‘yinni ham jamoa bo‘lib yoki yakka-yakka holda o‘ynash mumkin. Bunda mushtdan sal kattaroq 2 ta tosh olib, 1-qatnashchi 5-6 metr masofaga toshni irg‘itadi. 2-kishi esa toshni irg‘itgan joydan turib, otilgan toshni mo‘ljalga oladi va toshga tekkizadi. Agar otilgan tosh toshga tegsa birinchi qatnashchi uni yelkasiga opichlab 2-qatnashchini toshi yumalab borib to‘xtagan masofagacha ko‘tarib boradi. Tekkiza olmagan taqdirda esa buning aksi bo‘ladi. Shunga qarab musobaqa g‘oliblari aniqlanadi. Albatta bu jarayon ma‘lum belgilangan vaqtgacha davom etadi.

Mana shunday xalq o‘yinlari bilan bog‘liq sport tadbirlari, musoboqalar, bellashuvlar yoshlarimizni ham ma‘naviy ham jismoniy sog‘lom bo‘lishida katta ahamiyatga ega bo‘lishi asosiy natija bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda yoshlarimizni sportga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tishida esa biz mutaxassislar milliy sport o‘yinlarimiz orqali kelajak avlod uchun xizmat qilishdan ko‘tilayotgan natijaga

qaratsak nimalarga erishish mumkin degan savolga javob topish uchun milliy xalq sport o'yinlarining yana bir jihatga e'tibor qaratamiz.

Milliy xalq sport o'yinlari yordamida yoshlarimizning hayotga tayyorlanishiga e'tibor qaratiladi. Milliy sport xalq o'yinlarining harakatli o'yinlarni o'tkazish uchun qo'ygan talablari bugungi kungacha o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Masalan, u har bir o'yin oldiga aniq maqsadlar qo'yishi, o'tkazilayotgan o'yin qatnashuvchilarning kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o'yin shug'ullanuvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozimligini, ularni tizimli tarzda hamda muntazam o'tkazish, qatnashchilarning faolligi, mustaqilligini oshirishga harakat qilish zarurligini uqtirgan bo'lar edik.

Masalan:

1. Tezkorlikni tarbiyalovchi o'yinlar. Tezkorlikni tarbiyalash uchun mashqlar maksimal suratda bajarilishi lozim. Masalan, «Do'ppi kiyishda kim g'olib» o'yini qadimgi o'zbek xalqining milliy harakatli o'yinlaridan hisoblanib, bolani tezkorlik, chaqqonlikka o'rgatadi.

2. Kuchni rivojlantiruvchi o'yinlar. Bunda boshlovchi kerakli mushak guruhlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan o'yinlarni tanlashi lozim. Kuchni rivojlantirish uchun quyidagi o'yinlar tavsiya etiladi: «Xo'roz-xo'roz» o'yini, «Uloq», «Otdan ag'darish», «Oqsoq bo'ri va qo'ylar», «Chuqurga tushir» kabilar. Chunonchi, «Xo'roz-xo'roz» o'yinida qatnashchilar soni qancha ko'p bo'lsa, o'yin shuncha qiziqarli bo'ladi. Bu o'yinda asosan o'g'il bolalar qatnashadi. O'yinning asosiy maqsadi, yoshlarning kuchini sinash, chidamlilikni oshirishdan iborat.

Bu o'yinning yana bir boshqacha ko'rinishi ham bor. Bunda ikkita o'g'il bola qatnashadi. Dastlab yerga doira shakli chiziladi. Shu doira ichida har ikkala bola ham qo'llari orqasida, bir oyog'ini ko'tarib, ikkinchi oyog'ida sakrab-sakrab bir-birini yelkasi bilan turtib, doira ichidan chiqib ketgan yoki ko'tarilgan oyog'ini yerga qo'ygan bola yutqazgan hisoblanadi.

Tezkorlik va kuchni rivojlantiruvchi o'yinlar ma'lum bir vazifani hal etishda katta yordam beradi.

3. Chaqqonlikni tarbiyalovchi o'yinlar. Aniq harakat qilish zarur bo'lgan, bajarish sharoitlari o'zgaruvchan milliy o'yinlarda chaqqonlik yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Shunga tayangan holda chaqqonlikni tarbiyalash uchun «Almash qadamlar», «Tiriltirishma», «Urdu-qochdi», «Olacha tovuq», «Kim chaqqon» kabi o'yinlarni tavsiya etish mumkin.

Bu o'yinni guruhlarga bo'lib o'ynash bolada jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Bu o'yindan qadimda ota-bobolarimiz juda ko'p foydalanishgan.

4. Chidamlilikni tarbiyalovchi o'yinlar. Ko'pchilik milliy xalq harakatli o'yinlarida nihoyatda jadal bajariladigan mashqlar tufayli tezkorlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlar tarbiyalanadi. Bunday o'yinlarda jismoniy yuk (nagruzka) ham asta-sekin oshirib boriladi. Masalan, maydonni kattalashtirish; maydonni kichraytirmay turib o'yinchilarning sonini kamaytirish; o'yin jihozlari sonini ko'paytirish (tayoqcha, ro'molcha, do'ppi, chopon, to'p v.h.) yugurish masofasini uzaytirish; to'siqlar sonini oshirish; murakkab mashqlarni qo'llash va ularning sonini ko'paytirish va hokazo.

5. Egiluvchanlikni tarbiyalash. qatnashchilarda egiluvchanlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki yuqorida aytganimizdek, Egiluvchanlikni tarbiyalash maqsadida ayrim mushak guruh va bo'g'inlariga ta'sir ko'rsatuvchi o'yinlar tanlab olinadi. Bu o'yinlar asosan maxsus sport jihozlari yordamida o'tkaziladi. Og'irliklar o'rnida shug'ullanuvchilarning o'zlari ham qatnashishlari mumkin.

O'yin qatnashchilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantiribgina qolmay, ularni uyushib harakat qilishga da'vat etadi, demakki, uyushqoqlik, bahamjihatlik ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino nafaqat mashhur shifokor, faylasuf, shoirgina bo'lib qolmasdan, balki xalq o'yinlariga doir g'oyat rang-barang nodir meros qoldirgan allomadir. U xalq o'yinlari haqida fikr yuritarkan, ayniqsa badantarbiyaning kishi uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berdi. Ibn Sino inson organizmini

sogʻlomlashtirish va kasallikni davolash nuqtai nazaridan qarab, xalq oʻyinlaridan biri boʻlgan badantariyani beshta asosiy qismga ajratadi. Jumladan: Tez harakatlar; Nozik va yengil harakatlar; Kuchliroq harakatlar; Oʻrta kuchli harakatlar; Gavda uchun maxsus harakatlar. U badantariyani tez harakatlar turiga kiritadi, ular asosan, milliy xalq oʻyinlari yoki ularning ayrim unsurlaridan iborat. Masalan: Oʻzaro tortilish; Musht bilan turtishish; Yoydan oʻq otish; Tez yurish; Nayza otish; Yuqoridagi bir narsaga irgʻib osilish; Bir oyoqda sakrash; Qilichbozlik; Nayzabozlik; Otda yurish; ikki qoʻlni silkitish, bu vaqtda odam oyoq uchida turib, qoʻllarini oldga va orqaga choʻzib, tez harakat qiladi. Olim oʻyin turlari va unsurlarini shunchaki sanab oʻtmasdan, balki xalq donishmandligi asosida oʻzining kuchli bilimi bilan ularni boyitib, inson kamoloti uchun qaysi tarzda foydali ekanligini tushuntiradi. Ulugʻ hakim isitmadan holsizlangan, koʻkrak va qorin toʻsigʻi kasalligidan zaiflashgan kishilarga, asab tizimining charchashidan kelib chiqqan parisonxotirlik, ishtaha boʻgʻilishi kabi kasallardan qiynalayotganlarga oʻyinlarning quyidagi nozik va yengil turlari: Argʻimchoqlarda uchish; Belanchaklarda til holda oʻtirib yoki yotib uchish; Qayiq yoki kemalarda sayr qilish, Kuchliroq oʻyinlardan esa: Ot va tuyaga minish, Kajava va aravalarga tushishni tavsiya qiladi. Xalq oʻyinlarining kuchli turlariga maydonda bajariladigan quyidagi harakatlarni kiritadi: Kishining oʻz soyasi bilan olishishi; Chapak chalish; Sakrash; Nayza uchi bilan sanchish; Katta va kichik kurralar bilan chavgon oʻyini; Koptoklarni oʻynash; Kurash; Tosh koʻtarish; Quvlashish; Chopayotgan otni jilovidan tortib toʻxtatish. Xalq oʻyinlarining ajoyib bilimdoni boʻlgan Ibn Sino xalqimizning milliy sport turi boʻlgan milliy kurashimiz (Buxorochocha va Fargʻonachocha kurash turi) haqida ham yetarlicha maʼlumot qoldirgan.

2.2. Xalqimizning milliy o‘yinlari jismoniy va sport vositalaridan biridir

O‘yinlar-eng qadimiy madaniyat shakllaridan biri. Ular ko‘pgina san‘at turlari (raqs, teatr), marosim, sport kabilarning sarchashmasidir. Biz shunga aloxida e‘tibor berib, Forish noxiyasida 1985-yildan boshlab unutilgan xalq o‘yinlarini o‘rganish (1985-86-yil) tiklash (1987-91-yil), va targ‘ib qilish (1991-93-yil) bo‘yicha tajribalar olib borilgan. Buning natijasida, 100 ga yaqin o‘yinlar tiklandi. Mazkur tajriba natijalari an‘anaga aylanib, Har yili o‘tkazilib kelinayotgan «Xalq o‘yinlari» bayramlari olimpiadasi, qator filmlar va ommaviy axborot vositalarida, tadqiqotlarda o‘z aksini topdi. Tajriba asosida xalq o‘yinlarini tiklash va rivojlantirish yo‘llari belgilandi.

Azal azaldan respublikamizda o‘tkazilib kelinayotgan milliy bayramlarda, xalq tomoshalari va sayillarda madaniy tadbir va musobaqalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq hodisalar bo‘lib kelgan.

Bizga ma‘lumki ko‘pincha bayram kunlari yirik musobaqalar o‘tkazilgan va alohida o‘tkazilgan musobaqalar ham bayramlarga aylanib ketgan.

Mustaqillikka erishgan mamlakatimiz hozirgi kunda ko‘pgina xalqaro musobaqalar o‘tkaziladigan joyga aylanmoqda. Bunday yirik sport tadbirlarida, yosh avlodning sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, eng avvalo millat sog‘lig‘i mustahkamlanganini, sportchilarimiz mahorati o‘sayotganini, O‘zbekistonning jahonda obrusi ortib borayotganini namoyish qilmoqda.

Mustaqil davlatimizni jahonga tanitishda sportning ahamiyati katta bo‘lib. Hozirgi kunda milliy o‘yinlar, jumladan kurash, uloq, xalqaro sport turlari - tennis, boks, gimnastika, yengil atletika, suv sporti, futbol kabilar dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zbeklarning obrusini oshirmoqda.

Madaniy ma‘rifiy va tarbiyaviy faoliyatda yoshlarning madaniy-xordiqiy tadbirlarini uyushtirish masalalari keng qamrovli bo‘lib kelgan va kelmoqda.

“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unub-o‘sib,

ulgʻayib, qanday inson boʻlib hayotga kirib borishiga bogʻliqdir. Biz bunday oʻtkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim². (Islom Karimov)

Barkamol shaxsni tarbiyalashda jismoniy tarbiy va sport tadbirlari- ning oʻrni.

Bugungi yoshlar ertaga jamiyatimizning taqdirini belgilovchi avloddir. Biz bugun yoshlarga qanday tarbiya bersak, bizning kelajagimiz ham ushunday boʻladi.

Boʻsh vaqtda esa bolalar xohlagan narsalari bilan shugʻullanmovda. Bekor qolgan bolalarning muayyan qismi salbiy oqibatlariga olib keluvchi «faoliyatlar» bilan ham mashgʻul boʻlishmoqda.

Yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazishda madaniy-maʼrifiy muassasalar (ayniqsa, klub, madaniyat saroyi, madaniyat uyi kabilar)ning imkoniyati kattadir. Oʻquv yurtlari, asosan, bolalarga bilim-taʼlim berish bilan shugʻullansa, madaniy-maʼrifiy muassasalar ularning boʻsh vaqtlarini maroqli oʻtkazishga koʻmak beradi. Biroq, joylardagi madaniyat muassasalari aholining barcha qatlamlari uchun umumiy tadbirlar tayyorlashmoqda.

Ular yoshlarning ehtiyoji, qiziqishi va ularning ruhiyatiga mos tadbirlarni tayyorlashga alohida eʼtibor berishmayapdi. Natijada madaniy-maʼrifiy muassasalarning yoshlarni maʼnaviy, axloqiy, ruhiy, badiiy tarbiyalash borasidagi faoliyati kerakli darajadan past boʻlmoqda.

Hozirgi paytda yoshlarning boʻsh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali qilib uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri boʻlib, u olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy eʼtiborni kutib turibdi. Bu boradagi madaniy-maʼrifiy muassasalar tajribasi maxsus oʻrganishni, umumlashtirishni, tahlil va targʻib qilishni talab qilmoqda.

Madaniy-maʼrifiy faoliyati muassasalari yoshlarning sevimli maskani sifatida maʼnaviy-maʼrifiy, gʻoyaviy-siyosiy, badiiy xavaskorlik, sport oʻyinlari va boshqalar boʻsh vaqtini mazmunli uyushtirishda muhim rol uynamoqda.

I.A.Karimov. "Barkamol avlod Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori ". "Manaviyat".

Ma'lumki, madaniyat va aholi dam olish maskanlari o'z faoliyatlarini yoshlarning bo'sh vaqtida olib boradi. U yoshlarni asosiy ishi, o'qishdan tashqari har xil mazmun va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi.

Yoshlar o'rtasida qiziqarli o'yinlar va sport musobaqalari o'tkaziladi. Chunonchi, «Balli, yigitlar» va «Balli, qizlar» kabi tanlovlar ham tashkil qilinadi.

Bayramning oxirgi qismida ko'rik-tanlov g'oliblari taqdirlanadi, ularga bag'ishlanib ko'y va qo'shiqlar ijro etiladi.

Bo'sh vaqtda yoshlar uchun nafaqat madaniyat xodimlari, balki yoshlarning o'zi ham madaniy dam olish tadbirlarni tashkil qilsa bo'ladi.

Buning uchun madaniyat muassasalarda yoshlar to'planadigan, so'hatlashadigan, ijodiy ehtiyojlarni qondiradigan maxsus sharoitlar yaratmog'i lozim. Bu borada «Yoshlar xonalari», «Yoshlar klublari», «Yoshlar ijodiy guruhlar» kabi tajribalardan yaxshi foydalansa bo'ladi.

“Tarixiy adabiyotlardan bilamizki, qadimgi va o'rta asrlar davridagi, minglab o'yinlar ichida shunday musobaqa bo'lganki, bunda shaharning ikki kishi vakillari orasida "Qilich jangi", "Tuya poyga", "Tuyalar jangi", "Otliqlar poygasi" va hokazolar o'tkazilgan. Ularga shahar ahli yil davomida tayyorgarlik ko'rishgan”¹².

O'rta asr Sharq miniatyuralarida "Chovgon o'yini", "Kobok Uyini" kabilar tasvir-o'yinlar tarixida katta qiziqish tug'dirmasdan iloji yo'q.

Afsonaviy va tarixiy shaxslarning shakllanishida xalq o'yinlari muhim o'rin tutgan. Masalan, Alpomishni alp qomatli pahlavon bo'lishida merganlik, olishish, nayza otish, kilichbozlik, chavandozlik, ot kurash kabi musobaqa-o'yinlari asosiy omil bo'lgan.

"Alpomish" dostoni xalq o'yinlarini o'rganishda o'ta muhim manba bo'la oladi. Unda kurash, ot poyga, uloq, nayza sanchish, kamondan yoy, o'q otish, qilichbozlik, merganlik kabi o'yinlar negizida jasurlik, jangovarlik, oriyatlilik,

¹² Қорабоев У. Ўзбек халқ ўйинлари. Т.2001

matonat, ma'naviy va jismoniy komillik bilan bog'lik, fazilatlarini tarbiyalash bo'yicha xalq tajribasi o'z o'rnini topgan. Dostonda Barchinoy ot choptirib poygada g'olib chiqqanga, ming qadamdan yoy bilan tanga pulni urgan merganga, kurash tushib sakson alpni yiqqan polvonga tegishini shart qilib qo'yadi. Barchinoy vasliga etishni istaganlar orasida bahs-musobaqa avjiga chiqadi.

(Bu usha davrning uziga xos xalq o'yinlari anjumani sifatida namoyon bo'ladi). Albatta bu musobaqa o'yinlarida Alpomish g'olib chiqadi va bosh sovrin o'rniga Barchinoyga uylanish baxtiga sazovor buladi.

Soxibqiron Amir Temurning har tomonlama kamol topishida ham o'yinlar katta rol o'ynagan. Amir Temur yoshligida olishuv-kurash, ot o'yinlari, chavandozlik, poyga, merganlik, (tirandozlik), qilichbozlik, nayzabozlik, tosh ko'tarish, uzoqqa chopish kabi musobakalarda qatnashib, chiniqqan. Yoshligidagi bu o'yin-mashqlar keyinchalik sohibqironga juda ast qotgan.

O'zi o'yin-mashqlarda chiniqqan Amir Temur xalq o'yinlaridan o'z qo'shinini xarbiy tayyorlashda keng foydalangan. Jaxongir Amir Temur o'z qo'shinining ruhiy va jismoniy bardam qilish uchun mashq, musobaqa, o'yinlar tizimini yaratgan.

"O'sha davrlarda o'ziga yarasha musobaqalar shaklidagi kurashlar uyushtirib turilgan. Misol uchun, ot yoki tuyani tez yugurtirib nishonga nayzani aniq sanchish, qilich bilan "dushmanni chopib" tashlash, oldinda "kochib ketayotgan" raqibini o'q-yoy bilan muljalga olish hamda ot yoki tuya ustida keta turib orqada ta'qib qilayotgan rakibini kamondan o'kka tutish kabilar".¹³ Mana shu mashklar ayniqsa, chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, chapdastlik, muljalga tez, aniq nishonga olish kabi sifatlarni rivojlantirgan talab qiladi. Shuning uchun jangchilar o'z ustilarida iloji boricha mashq kilganlar.

Amir Temur o'z sipohdarining nihoyatda jasur, epchil va chakkon bulishini talab etgan. O'z askarlarini qilichbozlik, nayza uloqtirish, merganlik, baland

¹³ Абдурахимов Т. «Узбек халк уйинлари ва томошалари» Т.: НДА; 1997.

qoyadan arkonda chukur soyga tushib o‘zi bilan yana pastdan tosh olib chiqish va hokazo xarbiy tayyorgarlik mashqlaridan foydalanishga o‘rgatgan.

Temurning asosiy shiorlaridan biri "Oz bo‘lsa xam soz bo‘lsin!" deyiladi. U "tadbirkor bir kishi uquvsiz ming kishidan yaxshidir" ¹⁴- deb bekorga aytmagan. Shuning uchun u bir necha dushmanga bas keladigan askarlarni mashq, o‘yin, musobaqa orqali tarbiyalashga alohida ahamiyat bergan. Amir Temur qalqon, pichoq, qilich, yoy, nayza va tig‘ bilan jang qila oladigan jismoniy va ruhiy baquvvat polvon, mergan, qilichboz askarlar - maxoratli jangchilar tayyorlash maktabini yaratgan.

Millatimizning ma’naviy va jismoniy qadriyatlarini tiklashga xizmat qiladigan bu yirik anjuman madaniyatimiz tarixida yangi yana bir saxifa bo‘lib, u xalqimizning ruhiy, aqliy, jismoniy barkamol bo‘lishiga yo‘l ochdi.

Har ikki yilda o‘tkazilgan xalq o‘yinlari anjumani 1998-yil «Alpomish» dostoni yaratilganining 1 ming yilligda bag‘shlanib, Termiz shahridiga ko‘chirildi. Bu festival «Alpomish o‘yinlari» deb nomlandi. U ajdodlarimiz tarixida muhim o‘rin to‘tgan Alpomishdek xalq qaxramonlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan «kamondan otish», «nishonga urish» «suzish», «kurash» xullas, «Alpomish»ga bag‘ishlagan Respublika festivalining uyushtirilishi Alpomish davridagi dostonlarga ko‘chgan xalq o‘yinlarining tiklanishi ila muhim voqea bo‘ldi.

Aytish mumkimki mamlakatimizda o‘tkazilgan xalq o‘yinlari bayramlari o‘zbek ma’naviy va jismoniy madaniyati tarixida yangi va o‘chmas saxifa bo‘lib qoldi. Ilk bor Forishda o‘tkazilgan «Xalq o‘yinlari bayrami»da yongan mash’ala respublikamizning ko‘plab joylariga azaliy o‘yin-tomosha an’analarini tiklashga imkoniyat yaratdi. Agar 1990-yil “Xalq o‘yinlari” bayrami ikki qishloq o‘rtasida o‘tkazilgan bo‘lsa, 1991-yil u Forish tumani darajasida o‘tkazildi, 1992-va 1993-yillar Jizzax viloyati darajasida bu barcha tumanlarning faol ishtiroki ila

¹⁴ Қорабоев У. Ўзбек халқ ўйинлари. Т.2001

uyushtirildi. 1994-yil Forish tajribasi yangi pog'onaga ko'tarildi. Bu yerda ilk bor Respublika «Xalq o'yinlari» olimpiadasi o'tkazilib, unda Vatanimizning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'iston Rsspublikasi vakillari qatnashadi.

Olimpiadada azaliy xalq o'yinlari «Bo'ron», «Chavandoz», «Olib qochar» «Yelka kurash», «Qirq tosh», «Mindir», «Tortishmachoq» kabi turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

Bizning mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash amaliyoti shunga guvohlik beradiki, bolalarda va o'smirlarda yuqori axloqiy va jismoniy sifatlarni shakllantirishni eng muxim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa maktabgacha yoshdagi va maktab yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasida juda katta o'rin egallaydi, chunki ular salomatlikni saqlash va mustaxkamlashda, jismoniy rivojlanishni normal bo'lishiga harakat malakalarini kompleks takomillashtirishga qulaylik tug'diradi.

Birinchi faoliyatda o'yin mavjud, u shaxsni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Bolalar o'yinlarida to'plangan tajribalarda o'z aksini topgan bo'lib, hayot to'g'risidagi voqealarni ifoda etilganligi haqidagi o'zlarining tasavvurlarini mustahkamlaydi, chuqurlashtiradi. Mamlakatimiz pedagoglari o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlashda harakatli o'yinlarni ta'limiy ahamiyati kattaligini qayd qiladilar, chunki bola o'yinda rivojlanadi. O'yin bilan shug'ullanish o'yin qatnashchilarini yangidan-yangi, xis-tuyg'uni, tasavvur etishini, tushunchalarini boyitib boradi.

O'yin pedagoglarimiz qo'llarida bolani har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Ular uni tasavvur etish tushunchalarini kengaytiradi, kuzatuvchanlini, ziyrakligini, zehn o'tkirlikni, tahlil qilishni bilishni, ko'rganlarini taqsimlashni va ommalashtirishni rivojlantiradi, shu asosida uni atrofni o'rab turganlar orasida kuzatiladigan hodisalardan xulosa chiqaradilar.

Alohida sport turlarini harakat tuzilishi bo'yicha (sport o'yinlari, yengil atletika, gimnastika, kurash, suzish va b.q) o'xshash bo'lib, o'yin ta'limiy ahamiyatga egadir. Bunday o'yinlar u yoki boshqa sport turlarida malakalarni

hamda avvaldan o'rganilgan texnik va taktik usullarni mustahkamlash va takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Sport o'yinida makon (joy) va zamon munosabatlarini to'g'ri baholash qobiliyatini rivojlantiradi va o'yinda tez-tez o'zgarib turiladigan vaziyatni yuzaga kelishi ta'siriga tez va to'g'ri javob beradi.

Sport o'yinlari to'g'ri stereotip harakatni tarbiyalash juda muhimdir, chunki uni keyin to'g'rilash juda qiyin kechadi. Joylarda yoz va qish sharoitlarida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar katta ta'limiy ahamiyatga ega: bolalar oromgohlarida, dam olish joylarida safarda, sayrga chiqqanda. Joylarda o'tkaziladigan o'yinlar turistchi, razvetkachi, izquvarlarga zarur bo'lgan ta'lim malakalariga yordam beradi.

Bizning mamlakatimizda xalq milliy o'yinlari bilan o'quvchilarning tanishtirib borilishi juda katta ta'limiy ahamiyatga ega. Ular bolalarni millatimizning madaniyati va ularni urf-odatlarini bilan tanishtiradilar. Sport o'yinlarda o'yin qatnashchilariga alohida rollarni bajarishga to'g'ri keladi (o'yinboshi, ochkolarni hisoblaydigan, hakam, hakam yordamchisi, o'yin tashkilotchisi va b.q.). Bu ularda tashkilotchilik bilan va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Sport o'yinlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar o'yin qatnashchilari musobaqani tashkil qilish va o'yin qoidalari bilan tanishtiradi. Bu bilim va malakalar bolalarni mustaqil ravishda musobaqani o'tkazishga yordam beradi. Agarda pedagog, tarbiyachi, yetakchi bunga kerakli diqqat-e'tiborini qaratiladigan bo'lsa, unda o'yinni ta'limiy tomoni yetarli darajada bo'ladi.

O'zimizning milliy o'yinlarimiz turlari ko'p va o'zining mazmun ifodasi bilan boshqa o'yinlardan ajralib turadi. Masalan: "Kurash", "Uloq", "Qo'y urishtirish", "Tosh ko'tarish"... va hokazo.

Xullas, ming yilliklar davomida xalq o'yinlari ajdodlarimizning jismoniy, ma'naviy ruxiy va aqliy rivojlanishi uchun asosiy vosita bo'lib kelgan biroq keyingi asrda qator sabablarga ko'ra va avvalo shurolarning milliy an'analarga salbiy munosabati tufayli xalq o'yinlari e'tibordan chetda qola boshladi

Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlar - milliy ong, tarixiy hotira azaliy ananalar, diniy etiqodlar xalq ijodidagi turli milliy o‘yinlar ham jadal tiklana boshladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasining jonbozligi tufayli jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. «Xalq o‘yinlari» 1991-1992-1993 yillarda Forish) «Milliy sport va xalq o‘yinlari» 1 va 2 olimpiadalari (1994-1996 yillarda Forish), «Alpomish» 1 Respublika xalq o‘yinlari festivali» (1998, Termiz)), «To‘maris» qizlar milliy festivali (1999 Jizzax) «Alpomish» 2 Respublika xalq o‘yiilari festivali (2000 Farg‘ona) «To‘maris» 2 (Shahrisabz 2001) kabi yirik anjumanlar - O‘zbek xalq o‘yinlari tarixida yangi davrni boshlab bermoqda.

Xalq o‘yinlarining yana bir turi - uloq (ko‘pkari)ning ham markaziy Osiyo xududida obruyi oshmoqda. Ananaviy tarzda turli joylar (Samarqand Navoiy viloyatlari)da o‘tkazilayotgan uloq musobaqalarida qo‘shni- qarindosh davlat chavandozlari ham faol qatnashmoqdalar.

O‘zbek xalqi kurashi uloq kabi xalqaro darajaga chiqadigan o‘yinlar kam emas. Ularni chuqurroq o‘rganishimiz va targ‘ib qilishimiz zarur. Bu borada xalq o‘yinlarining (ko‘plab turlariga bag‘ishlangan olimpiada, festival, bayramlar o‘tkazish bilan bir qatorda). aniq bir turiga oid tuman, viloyat va respublika musobaqalarini o‘tkazish lozim. Ikkinchidan, respublikamizda o‘tadigan yirik musobaqalarga xalq o‘yinlaridan ham qo‘shmog‘imiz lozim. Afsuski, biz hozir faqat bir necha xalq o‘yin yoki musobaqasini, jumladan, «Kurash» «Ulok» «qiz quvdi» kabilardan foydalanmoqdamiz. Vaxolanki o‘zbek xalq tarixiy bisotida minglab rang-barang o‘yinlar bo‘lgan.

Xullas madaniy merosimizning biri bo‘lgan avlod-ajdodlarimiz asrlar mobaynida sog‘liq ato etib kelgan xalq o‘yinlarini chuqur o‘rganish. jonlantirish milliy qiyofamizni saqlash demakdir. Unutmaylik, xalq o‘yinlari ajdodlarimizning ming yilliklar davomida ulkan tarixiy-madaniy boyligidir. Ularni ko‘z qorachig‘idek asrash e‘zozlash va ulardan oqilona foydalanish muqaddas ish ekanligini unutmashimiz kerak. Agar ana shunday qila olsak o‘zimizning ham, kelajak avlodlarimizning xalq tilida aytganda «jomu zann omon bo‘ladi.

O'tgan avlodlarning bizga meros qilib qoldirgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq o'yinlari ham kiradi. Xalq o'yinlari o'zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra g'ayri oddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini muayyan aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyotining qonunlari bilan belgilanadigan maqsadli faoliyatdir. Xalq o'yinlari xalq ijodiyotining xos janri bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. O'yinlar xalq tomonidan yaratilgan va kishilarning kundalik hayotidagi voqealar hamda hodisalarni o'z ichida aks ettiradi. Taassurotlarni, kuzatishlarni tajriba va hissiyotlarni gavdalantirib, o'zida so'z, musiqa, raqs shakllarini mujassamlashtirgan. Masalan, ibtidoiy tuzumda bolalarni tarbiyalashning xarakterli jihati — ularni urf — odati, an'analari tarixi bilan, shuningdek, xalq og'zaki ijodi: rivoyatlar, qo'shiqlar raqslar bilan ifoda etgan. O'zbek xalq o'yinlari xalq ijodiy faoliyatining bir turidir. Ularni xalq yaratgan va keng xalq ommasiga tarqatgan. Hozirga qadar o'zbek xalqi o'zining tantanalarini katta tomoshalar — sayillar bilan nishonlanadi. Masalan, ommaviy tomoshalar, sayillar, Navro'z ayyomida, Hosil bayramlarida xalq o'yinlaridan keng foydalanilgan. Sayillar vaqtida «Olomon poyga», "Qiz quvish", «Kurash», «Ag'darish», Ko'pkari", «Duppi yashir» kabi musobaqa o'yinlari, sport o'yinlari sifatida o'tkazilib kelinmoqda. O'zbek xalq o'yinlarining ko'pida milliy musiqa asboblari karnay, surnay, nog'ora, childirma asboblari foydalaniladi. Hozirgi vaqtda o'zbek xalq o'yinlarining asosiy vazifasi o'z mazmuni hamda metodikasi bilan bolalarni jamiyatimiz talablariga muvofiq tarbiyalashni ta'minlash, ularda axloqiy, irodaviy sifatlarini rivojlantirish, ijodkorlikka xos bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishdan iborat. O'zbek xalq o'yinlaridan foydalanish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'yin bolaning o'z faoliyati ekani, undagi tashabbuskorlikni va mustaqillikni saqlash hamda rag'batlantirish zarurligini hisobga olish kerak. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiya jarayonida faoliyatning bir turi sifatida namoyon bo'ladi, mehnat va o'qish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalq o'yinlarining ana shu eng muhim xususiyatlaridan biri ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. O'zbek xalq o'yinlarini o'rganish tarbiya jarayonini uzluksiz yangilaydi,

o'quvchilarda hayotiy vaziyatlarni yaxshi anglash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bilishga juda qiziqish uyg'otadi, shuningdek, ularga o'z xalqining tarixi va hayotining turli sohalariga, moddiy va ma'naviy madaniyatiga, ijtimoiy turmush tarzi, odatlari va an'alariga taalluqli ma'lumotlarni beradi. Ularning kuchli, chaqqon, serharakat, ziyrak, topqir, o'zaro hamkor bo'lishiga yordam beradi. O'zbek xalq o'yinlaridan namunalar: «**Olomon**» o'yini. O'yinning qisqacha mazmuni: O'yinda istalganchabola qatnashish mumkin. O'yinda boshqaruvchi tanlanadi. Qolganlar uning atrofida aylana hosil qilib turadilar. Boshqaruvchining ishorasi bilan bolalar chapak chalib, xakkalab yuguradilar. Ular yugurayotganda boshqaruvchi belbog'ni tashlaydi. Bolalar belbog'ni ilib oladilar. Jihazlar: milliy kiyimlar, belbog'. O'yin vaqti: 20 daqiqa. «**Uloq**» o'yini. O'yinning qisqacha mazmuni: O'quvchilar ikki jamoaga bo'linib, diametri 6-8 metrli aylana chizig'ini tashqarisida turadilar. Aylana o'rtasida turgan boshqaruvchi aylanaga to'pni tashlaydi. O'quvchilar to'pga yugurishib, uni tutib olishga va aylanadan tashqariga qochishga intiladilar. Bunda bolalar bir — birlarining qo'llaridan to'pni yulqib olishlari ham mumkin. Jihazlar: milliy kiyimlar. jamoalar uchun belgilar, latta koptok. O'yin vaqti: 15-20 daqiqa. «**Darvozalar**» o'yini. O'yinning qisqacha mazmuni: O'yinda o'quvchilar soni cheklanmaydi. Arqon tortiladi yoki yo'g'onligi 10 sm, uzunligi 4-5 metr chiziq o'tkaziladi. O'quvchi shu chiziqdan arqonda yurgandek yuradi, uning ustida raqs harakatlarini bajaradi hamda ko'zini boylab yuradi. Arqondan yiqilmay o'tgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. O'yin paytida musiqa yangraydi. Jihazlar: bolalar karnay va surnaylari. O'yin vaqti: 10-15 daqiqa. O'zbek xalq o'yinlarining orasida g'oyaviy-siyosiy, aqliy, axloqiy, mehnat va jismoniy tarbiya bilan bog'liq o'yinlar ham bor. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan biri shuki, ular bolalarda vatanparvarlik, baynalminalchilik, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hurmat kabi ma'naviy, siyosiy tuyg'ularni shakllantirishda katta ta'sir ko'rsatadi. Xalq milliy o'yinlaridan foydalanish. a'lim tizining barcha bosqichlarida o'quvchilarni bo'sh vaqtlarida qo'llashbu milliy qadriyatlarining, meroslarning ulug'lanishiga, rivojlanishiga, yanada ko'p yillar mobaynida davom ettirilishiga olib keladi.

Xulosa

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom kamol topishi barkamol shaxsni voyaga yetkazishning asosiy omilidir. Vatan, xalq shuhratini dunyoga tarannum etishda sportning o'rni beqiyosdir. Jahon miqyosidagi ko'plab nufuzli musobaqalarda o'zbek yoshlari erishayotgan g'alabalar bu haqiqatni tasdiqlab turibdi. Sport nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga yetishishda ham muhim omildir. U irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi. Sportchi yoshlarimiz xalqimizning umid yulduzlari, ertangi kunimizning ishonchi va tayanchidir. Sog'lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq albatta o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. Yoshlarimiz jahon sport maydonlarida O'zbekiston bayrog'ini doimo baland ko'tarib bormoqdalar. Yurtimizda bolalar sportini rivojlantirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni oshirish yo'nalishida xalqaro maydonda ham e'tirof etishga arzigulik ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda, ayniqsa, qishloq joylarda o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug'ullanishga ommaviy jalb etish, ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining o'qitilishi samaradorligini oshirishga keng e'tibor qaratilayotgani muvaffaqiyatlar garovi bo'layotir. Barcha ta'lim muassasalarida o'quvchilarning darsdan keyingi faoliyatini to'g'ri tashkil etish maqsadida ularni turli ijodiy, fan, sport to'garaklariga jalb etish chora-tadbirlari belgilangan. O'quvchi-yoshlarni sportning ommaviy turlariga jalb etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda ular o'rtasida do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, joylardagi jamg'arma nomidan qurib bitgan sport inshootlari va ularga ajratilgan sport inventarlaridan unumli foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodda sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy kamolikka intilish zarurligini tushunishni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni o'quvchi-yoshlarning kundalik turmush tarziga singdirish,

o'quvchi-yoshlarning jismonan barkamol, baquvvat va sog'lom bo'lishiga, chiniqishiga umumiy ish qobiliyatining o'sishiga yordam berish maqsadida uzluksiz sport musobaqalari tashkil etilmoqda. Farzandining sog'lom, barkamol avlod bo'lib voyaga yetishini istagan har bir ota-ona o'g'il-qizi ta'lim-tarbiyasining uzluksiz davom etishiga jiddiy e'tibor bermog'i zarur. Ayni paytda umumta'lim maktablarimizda o'quvchilarning darsdan keyingi vaqtining sermazmun o'tkazishi uchun zarur shart-sharoitlar mavjud, maktablarda hamda zamonaviy bolalar sporti majmualarida turli sport to'garaklari faoliyat olib bormoqda, o'z navbatida maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi har bir o'quvchisining jismoniy imkoniyatlari, qaysi sport turiga iqtidori borligi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Farzandini biron bir sport to'garagiga olib borishdan oldin ota-ona jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilan maslahatlashadi, u esa bolaning qaysi sport turiga layoqati borligi, qiziqishiga qarab, ota-onaga to'g'ri va aniq ko'rsatma beradi. Bu kabi faol hamkorlik natijasida bola nafaqat ta'lim jarayonida, balki sportda ham yaxshi natijalarga erishadi, eng muhimi, bolaning bo'sh vaqti mazmunli va qiziqarli o'tadi.

O'z mashg'ulotlari davomida bolalarni Vatanga muhabbat, sadoqat, buyuk otaboblar o'gitlariga chuqur hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalab borarkan, sport murabbiylari hamda maktab jismoniy tarbiya o'qituvchilari baxtli kelajak uchun mustahkam va ishonchli poydevor qurishda o'z hissalarini qo'shishlariga shakshubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-T.:“Ma’naviyat”,2008.-116 b.
2. Karimov I.A “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T.: O‘zbekiston, 2011.-152 b.
3. I.A.Karimov. "Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori ". “Manaviyat”.
4. “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining QARORI (31 oktabr 2002 yil),
5. “Bolalar va o‘smirlar sport maktablarini qadrlar bilan ta‘minlashni yaxshilash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi XTVning BUYRUG‘I (13 may 2005 yil),
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risida NIZOM (6 iyul 2005 yil), O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi Homiylik kengashining Tarkibi (Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31 oktabrdagi 374-sonli qaroriga 2-ilova),
7. 2007 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi byudjetini va bolalar sport obyektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI (26 dekabr 2006 yil).
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O‘rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati» mavzuidagi xalqaro konferensiyasidagi nutqi. “Ma’naviyat”
9. “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi. 2016 yil.

Asosiy adabiyotlar

10. Qoraboyev U. O‘zbek xalq o‘yinlari. T.2001
11. Abduraximov T. «Uzbek xalk o‘yinlari va tomoshalari» T.: NDA; 1997.
12. Galiev SH. «Uzbek bolalar o‘yin folklori». T.: «Fan». 1998.

13. Usmonxujaev T. , Xujaeva F. «Ming bir uyin». T.: «Ibn Sino». 1990.
14. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O'qituvchi, 1996.-125 b.
15. Navro'z: Navro'z bayrami tarixini maktab, akad. litsey va kollejlarda o'rganish yuzasidan tavsiyalar /To'plab, nashrga tayyorlovchilar M.Xoshimxonov va boshq.- T.: Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2008.-335 b.
1. <http://www.yuridlit.ru>
 2. <http://www.allpravo.ru>
 3. <http://www.troek.net/zakaz.htm.ru>
 4. <http://www.lawbook.ru>